




"OILA VA GENDER" ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI

M.Qaxxorova, F.Abduraximova, O.Musurmanova,
B.Farfiyev, F.Rashidov. O'.Palvanov

**OILA VA NIKOH
MUNOSABATLARI
MUSTAHKAMLIGINING
DUNYOVIIY VA DINIY
ASOSLARI**



Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar miqdori



"OILA VA GENDER" ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI

M.Qaxxorova, F.Abduraximova, O.Musurmanova,
B.Farfiyev, F.Rashidov. O'Palvanov

OILA VA NIKOH MUNOSABATLARI MUSTAHKAMLIGINING DUNYOVIIY VA DINIY ASOSLARI

(Uslubiy qo'llanma)



"Mahalla va oila" nashriyoti
Toshkent - 2024

> |
ri
iy va

UO'K 28-45:173(075.8)
KBK 86.2+87.7
O-38

Oila va nikoh munosabatlari mustahkamligining dunyoviy va diniy asoslari
[Matn]: uslubiy qo'llanma / M.Qaxxorova, F.Abduraximova, O.Musurmanova, B.Farfiyev,
F.Rashidov. O'.Palvanov. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024. – 96 b.

Mualliflar:

M.Qaxxorova, F.Abduraximova, O.Musurmanova, B.Farfiyev,
F.Rashidov, O'.Palvanov.

Mas'ul muharrir:

Sh.Sodiqova – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

N.Yusupova – yuridik fanlar doktori, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islomshunoslik ICESCO" kafedrasida professori
D.Karimova – yuridik fanlar doktori, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Xalqaro
munosabatlar va Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti

Mazkur uslubiy qo'llanmada oila mustahkamligi, xalq farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilm-ma'rifat, tinchlik, poklik kabi tamoyillarga asoslangan islom dini manbalari, qonun hujjatlari, e'zozlangan milliy urf-odatlar va sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar asosida oila va nikohning o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu uslubiy qo'llanmada jamiyatning muhim instituti hisoblangan oila va uning barqarorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan norasmiy shar'iy nikoh asosida yuzaga kelayotgan noqonuniy oilalar va ularda farzandlar ta'minoti hamda tarbiyasi bilan bog'liq muammolar, muqaddas oila instituti mustahkamligiga tahdid solayotgan hodisalarning oldini olish masalalari yoritilgan. Xususan, jamiyat muhitida qonuniy nikohsiz birgalikda yashash, poligamik nikohning axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy oqibatlarini tushunish, uning salbiy ta'sirlarining oldini olish mexanizmlari bilan bog'liq muammolar bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan mahalla fuqarolar yig'inlarining mutaxassislari, otinoyilar, oilashunos tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-uslubiy kengashining 2024-yil 1-martdagi 2-sonli yig'ilish bayonnomasida nashrga tavsiya etildi

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2024-yil 12-iyuldagi 03-07/4159-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

ISBN 978-9910-9916-9-1

© "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti, 2024
© "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024




Oila va nikoh munosabatlari mustahkamligining
dunyoviy va diniy asoslari

KIRISH

Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar xalqlar madaniy hayotidagi asrlar davomida qaror topgan nikoh munosabatlarining degradatsiyaga uchrayotgani bilan xarakterlanmoqda. Nikoh va oilaviy qadriyatlarining mohiyatini anglamasdan, ularni yo'qotishga, insoniyat erkinligiga putur yetkazuvchi sarqit sifatida baholovchi nigilistik qatlamlar shakllanmoqda. Bunday qarashlar G'arb-u Sharq xalqlari hayotiga birdek kirib bormoqda. Shu bois oila-nikoh munosabatlarining axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish, transformatsiyasiga sabab bo'luvchi konseptual asoslarini aniqlash va insoniyatning progressiv taraqqiyotidagi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda.

Ma'lumki, oila jamiyatning eng ko'hna va muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Aynan oilada reproduktiv funktsiya amalga oshiriladi. Keyinchalik esa shaxsning ijtimoiylashuvi ham aynan oilada sodir bo'ladi. Shuningdek, milliy an'analar, urf-odatlar, udumlarni idrok qilish va ularni o'zlashtirish ham oilaviy hayotda kechadi. Shu va boshqa muhim jihatlari tufayli oila jamiyat hayotining poydevori hisoblanadi. Qaysiki jamiyatda oila instituti mustahkam bo'lsa, o'sha yerda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash qonuniyat xususiyatiga ega bo'ladi. Oila barqarorligi esa bir qator omillar ta'sirida mavjud bo'ladi. Ularning har biri muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy izlanishlar yordamida tadqiq qilinib, jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayonida oila institutini





mustahkamlash yanada murakkablashib borishining sabablari aniqlashtirilishi dolzarblik kasb etadi.

Xususan, zamonaviy sharoitlarda oila ma'naviy muhitining beqarorlashuvi, yuz berayotgan oilaviy ajrimlar tufayli ota yoxud ona mehridan benasib voyaga yetayotgan farzandlar ham, afsuski, ko'payib borayotgani, oilaviy ajrimlardan, avvalo, voyaga yetmagan bola, ayol aziyat chekayotgani, norasidalarining moddiy ta'minoti, ruhiyati, tarbiyasi, taqdiri, kelajagi savol ostida qolayotgani har bir fuqaroni ogohlikka chaqiradi. Chunki bugungi kunda jamiyat a'zolari o'rtasida norasmiy shar'iy nikohni noqonuniy holatlarda, belgilangan tartiblarga zid ravishda o'qilishi hamda nosog'lom oila muhitlarida nikohsiz yashash holatlari ushbu nikohlarning noqonuniy bo'lishiga olib kelmoqda.

Globalashuv sharoitida zamonaviy jamiyat hayotiga turli xil madaniyatlardan har xil hodisalar kirib kelyapti. Ularning ayrimlari shu jamiyat hayotiga mos kelib, mahalliy sharoitlarga assimilyatsiya bo'lishga muvaffaq bo'lsa, boshqalari esa ijtimoiy hayotga to'liq singib ketmayapti, lekin jamiyat a'zolari va ularning oilaviy hayotlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib ulgurmoqda. Jumladan, o'zbek jamiyatiga o'zga jamiyatlardan turli xil madaniy hodisalarning submadaniyat ko'rinishlari kirib kela boshladi va ular jamiyatimiz hayotiga zararli oqibatlarni singdira boshladi. Masalan, moddiy ta'minotni ma'naviy komillikdan ustun qo'yish, avlodlararo munosabatlarda uzviylik aloqasi uzilib qolayotgani, oila a'zolari o'rtasida pardaning ko'tarilishi oqibatida ular orasida uyat-andisha yo'qolib borishi ayrim yosh oilalar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, diniy va dunyoviy ilmlarni egallamagan, tegishli hujjat shahodatnomasi yo'q norasmiy shaxslar o'zboshimchalik bilan muqaddas nikoh shartlariga amal qilmay, FHDY bo'limlari



guvohnomasini olmasdan huquqiy davlat talablarini buzayotganliklari, eng achinarlisi, nikoh yoshiga ham to'lmagan yoshlarning nikohlarini o'qishi oqibatida turli salbiy holatlar yuz bermoqda. Vaholonki, FHDY guvohnomasisiz nikoh o'qilishi oilani ijtimoiy-huquqiy kamsitishdir.

O'zbekiston musulmonlari idorasiga shikoyat qilinayotgan oilaviy masalalar tahliliga ko'ra, aksar holda FHDY ro'yxatidan o'tmagan oilalarda ajrim ko'pligi va bunday hollarda ayollar o'z huquqlarini himoya qila olmayotgani, farzandlarga nisbatan otalik fakti belgilanmay qolayotgani, umumiy mulk taqsimoti va meros masalasi, oilalar parokandaligi, bolalar tirik yetim bo'lishi kabi bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Achinarlisi bu kabi illatlar bizning real hayotimizda tez-tez uchrayotgani bo'lib, amalda bu salbiy holatlarning oldini olish, oila mustahkamligiga garov bo'lishi amaliy jihatdan asoslanmoqda. Bu esa jamiyat ma'naviy muhitida qonuniy nikohsiz birgalikda yashashning, norasmiy shar'iy nikohning axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy oqibatlarini tushunish, uning salbiy oqibatlarining oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Birinchidan, dunyo ilm-fanida barcha ijtimoiy-gumanitar soha institutlari, markazlari, tadqiqotchilari tomonidan oila-nikoh munosabatlariga doir nazariy-metodologik va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, nikohning paydo bo'lib rivojlanish evolyutsiyasi, nikohdan qoniqishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, nikohning insoniyat demografik o'zgarishiga ta'siri, nikohni tartiblashtirish maqsadida diniy, milliy, huquqiy munosabatlarning funksiyalari tasnifi bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy fundamental ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Ikkinchidan, hozirgi sharoitlarda mamlakatimiz hududlarida poligamik nikohlar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Pirovardida oila ma'naviy muhitining beqarorlashuvi bois yuz berayotgan oilaviy ajrimlar tufayli ota yoxud ona mehridan benasib voyaga yetayotgan farzandlar ham, afsuski, ko'payib bormoqda. Chunki bugungi kunda jamiyat a'zolari o'rtasida norasmiy shar'iy nikohni noqonuniy holatlarda o'qilishi hamda nosog'lom oila muhitida dunyoviy nikohsiz yashash holatlari oila barqarorligiga jiddiy putur yetkazmoqda.

Uchinchidan, jamiyatimizda ayrim fuqarolarning benikohlik maqomida (ham dunyoviy, ham islomiy) turmush qurish holatlari ham ko'paymoqda. Bu hodisa esa G'arb mamlakatlarida keng tarqalgan "Fuqarolik nikohi"ga juda yaqindir. Oilalar mustahkamligini ta'minlashga mazkur nikoh ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda farzandlar tarbiyasini amalga oshirishda noxush hodisalarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, yechimini kutayotgan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri - ko'pnikohlik (poligamiya) va dunyoviy nikohsiz yashash hodisasining oldini olish. Chunki mazkur hodisa jamiyat tayanchi hisoblangan oila instituti barqarorligi va mustahkamligiga jiddiy xavf-xatarni keltirib chiqarmoqda.

Beshinchidan, har qanday jamiyatning barqarorligi oila mustahkamligi bilan bevosita bog'liq ekan, bunda oilaning ijtimoiy ahamiyati ham oshib boraveradi. Oila mustahkamligini ta'minlash jamiyat muhitidagi eng murakkab masalalardan biri hisoblanib, uning yechimiga kompleks yondashish sermahsul natija beradi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida oilaviy qadriyatlarning deformatsiyalashuvi natijasida xaostik dinamikaning ortib borishi va "o'zaro hurmat", "hissiy intilish"ning degradatsiyaga

uchrayotgani bois oila-nikoh munosabatlarining axloqiy sifatlarini asrab qolish obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Oltinchidan, oilaning mustahkamligi bir qator omillarga bog'liqligini e'tirof etib, ular ichida islom qadriyatlarining o'rni yuqori ekanligi asoslangan. Shu nuqtayi nazardan norasmiy shar'iy nikoh va "erkin fuqarolik nikohi" bilan bog'liq ba'zi udumlarning axloqiy qadriyatlarimizga mos kelmayotganini ilmiy tahlil qilish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Shu bois ham joylarda mutasaddi kishilar oilaviy nizolarni bartaraf qilishda ma'rifiy islom qadriyatlariga yanada chuqurroq tayanishi va diniy soha mutaxassislari oldiga jiddiy talab qo'yishi bilan dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar orasida professional diniy mutaxassisgina islomiy shar'iy nikohni o'qishi mumkin ekanligi, savodsiz kishilar tomonidan xatolar asosida o'qilgan nikoh haqiqiy bo'lmasligini, islom dinida oila va uning barqarorligi muhim voqea ekanligi, har qanday jamiyatning osoyishta hayoti avvalambor, mustahkam oila instituti bilan bevosita bog'liqligi, diniylik va dunyoviylik uyg'unligiga erishish, faqat duo-fotiha bilan emas, balki ratsional-amaliy harakat sababchiligida oilani barbod qiluvchi tahdidlar bilan sermahsul tarzda kurashish mumkinligini aholi ongiga singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda yetarlicha targ'ib va tashviq qilinishini talab qiladi.



OILA MUSTAHKAMLIGI ASOSLARI

Yangi ma'naviy makon yaratish, Yangi O'zbekistonning axloqiy qiyofasi rivojida oila va nikoh munosabatlarining o'rni muhim.

Mamlakatimizda oila-nikoh instituti mustahkamligi va farovonligini ta'minlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, sog'lom, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash hamisha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lim-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu – oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya – oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi"¹.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning osoyishta hayoti, avvalambor, mustahkam oila instituti bilan bevosita bog'liqdir. Har bir jamiyatning negizi oila ekanini sog'lom tafakkur egalari anglay oladi. Shunga ko'ra, oila faravonligi ayni paytda jamiyat rivojida katta ahamiyatga ega. Ushbu mavzuga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va milliy qadriyatlarimizda ham alohida ahamiyat qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga² ko'ra, Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlari deganda, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga, shu jumladan, Oila kodeksiga zid bo'lmagan an'analari tushuniladi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha fuqarolarning an'anaviy oilaviy qadriyatlarini hurmat qilishi e'tirof etiladi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi.

Islom dini va milliy qadriyatlarimizda ham oilaga alohida e'tibor qaratilgan. Islomda nikoh bu – erkak va ayol o'rtasida ma'lum me'yor va shartlar asosida oila qurish hamda nasl qoldirish maqsadida Alloh taoloning nomi, Muhammad (s.a.v.) ning sunnati va ko'p sonli musulmon kishilarning guvohligida tuziladigan bir umrlik ahdlashuv hisoblanadi. Shu bois er va xotin zimmasiga muayyan mas'uliyatlar yuklatiladi va undan qochish hamda bo'yin tovlash mumkin emas. Darhaqiqat, shariatga ko'ra, nikohsiz noqonuniy yashash bir jihatdan Qur'onda va hadislarda jazosi qattiqligi borasida ogohlantirilgan – katta gunohning biri hisoblangan zino bo'lsa, ikkinchi tomondan, shar'iy nikohsiz tug'ilgan norasida bolaga "valadizino" tamg'asi bir umrga bosiladi.

Ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar ham oilaning tarixiy epistemologiyasi insoniyat paydo bo'lgan davrga borib taqalishini hamda u erkak va ayol o'rtasida tuzilishini ta'kidaydi. Zero, islom

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 72-73.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Юридик адабиётлар, 2023. – 112 б.



dini manbalarida ham bu zikr qilingan. Jumladan, Qur'oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

وَاللَّهُ جَعَلَ لَكُمْ مِنْ أَنْفُسِكُمْ أَزْوَاجًا وَجَعَلَ لَكُمْ مِنْ أَزْوَاجِكُمْ بَيْنِينَ
وَخَفَدَةً وَرَزَقَكُمْ مِنَ الطَّيِّبَاتِ أَفَبِالْبَاطِلِ يُؤْمِنُونَ وَبِإِنْعَمَةِ اللَّهِ هُمْ يَكْفُرُونَ.

“Alloh sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘illar va nabiralar paydo qildi”
(Nahl surasi, 72-oyat).

Islom dini tarkidunyochilikdan va yolg‘iz o‘tishdan qaytargan. Shunga ko‘ra, oila qurmasdan yakka o‘tish gunoh bo‘ladi. Abu Ayyub al-Ansoriy (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda quyidagicha marhamat qilingan:

أَبِي أَيُّوبَ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: أَرْبَعٌ مِنْ سُنَنِ
الْمُرْسَلِينَ: الْحَيَاءُ، وَالتَّعَطُّرُ، وَالسِّوَاكُ، وَالنِّكَاحُ.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “To‘rt ish payg‘ambarlarning sunnatlaridandir: hayo, atir sepish, misvoq ishlatish va nikoh (oil qurish)”.

Demak, barcha payg‘ambarlar oila qurish lozimligini insonlarga yetkazishga buyurilganlar. Shuningdek, Tovus ibn Kayson (r.h.)dan rivoyat qilingan hadisda bu holat alohida ta‘kidlangan:

رسول الله صلى الله عليه وسلم أنه قال: لا رهبانية في الإسلام.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Islomda tarki dunyochilik yo‘qdir”.

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning



o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Dunyodagi barcha insonlar, xususan, har bir qiz yoki har bir ayol baxtli bo‘lishga haqli, bu esa oila qurish bilan to‘kis bo‘ladi. Shu bois ular o‘z baxtini izlashi, o‘ziga munosibroq yor, bir umrlik yo‘ldosh tanlashi hamda axtarishi mumkin. Ushbu xayrli niyatda har bir shaxs birovning fe‘l-atvorini, nasl-nasabini va hokazolarni bilishga hamda surishtirishga haqli. Zotan, oilaning mustahkam bo‘lishida er va xotinning o‘zaro bir-biriga munosibligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda ushbu ikki jihat ham alohida ta‘kidlangan:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: تَخَيَّرُوا لِنُطْفِكُمْ
وَأَنْكِحُوا الْأَكْفَاءَ وَأَنْكِحُوا إِلَيْهِمْ.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Zurriyotingiz uchun (ayollarni) tanlanglar, mos kelganlari bilan nikohlaninglar va (qizlaringizni) munosib (erkak)larga turmushga beringlar”.

Sevgi-muhabbat va mehribonlik insoniy tuyg‘ularning eng oliylaridan sanaladi. Oilada er-xotin o‘rtasidagi sevgi-muhabbat va mehribonlik bor narsa. Shuningdek, islomda erning xotiniga xushmuomala bo‘lishi ta‘kidlangan. Zero, ushbu ikki holat oila mustahkamligini ta‘minlashdagi muhim omillardandir. Qur’oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

وَمِنْ آيَاتِهِ أَنْ خَلَقَ لَكُمْ مِنْ أَنْفُسِكُمْ أَزْوَاجًا لِتَسْكُنُوا إِلَيْهَا وَجَعَلَ بَيْنَكُمْ
مَوَدَّةً وَرَحْمَةً إِنَّ فِي ذَلِكَ لَآيَاتٍ لِقَوْمٍ يَتَفَكَّرُونَ.



“Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar taskin topishingiz uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratgani va o‘rtangizda muhabbat va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir” (Rum surasi, 21-oyat).

Shuningdek, Abdulloh ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda quyidagicha bayon etilgan:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ قَالَ قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: لَمْ تَرَ لِلْمُتَحَائِبِينَ
مِثْلَ النَّكَاحِ.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Ikki nafar (erkak va ayol) o‘zaro muhabbat qilganlar uchun nikoh (oila qurish)dan ko‘ra eng afzal narsani ko‘rmadik!”

Nikohning er-xotin o‘rtasini bog‘lovchi bitim oila instituti ekanligi, qolaversa, erkak va ayol borlig‘ini mehr-muhabbat rishtasi bilan bog‘lovchi, zurriyot qoldirishga hamda buzuqlikdan saqlovchi ilohiy ahd ekanligi diniy manbalar asosida tahlil qilingan. Diniy nikoh munosabatlari o‘zbek xalqi milliy nikoh marosimlari bilan uyg‘unlashib, bir-birini to‘ldirib go‘zal axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi. Juftlashish, nikohdan o‘tib, oila qurib birgalikda halol umr kechirish oliy aql sohiblariga xos fazilatdir.

Islom ta‘limotida nikoh erkak va ayolning oila qurishning shartlari, qoidalarini shariat ko‘rsatmalari, talablari asosida amalga oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Mazkur tushuncha ham arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, qo‘shilish degan ma‘noni anglatadi.

Islom dini oila nikoh munosabatlari mohiyatida iffat va saqlanish me‘yorlari mujassam. Islom dinida balog‘at yoshiga yetgan har bir yigit-qiz nikohga oila qurishga chaqirilgan. Uylanish musulmonlar uchun nafsni haromdan tiyish vositasi sifatida qarab kelinadi.

Islom qoidalariga muvofiq, nikoh asosida tashkil etilgan oila asosida insonga uchta yaxshilik ifodalanadi.

Birinchisi, bir umrlik jufti-haloliga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, xotirjamlik, nafs rohati va baxtli turmush hayoti soyasida topadigan inoqlik va sokinlikdir.

Uchinchidan, er-xotin bir-biri uchun xuddi badanning ayblarini yashirib, uni issiq-sovuqdan asrab, harorat bag‘ishlab turadigan libos kabidirlar.

Islom huquqiga ko‘ra, nikohning haqiqiyligi – quyidagi to‘rt shartning uyg‘unligi, chunonchi:

birinchisi – bevosita monelik qiluvchi holatlarning yo‘qligi;

ikkinchisi – muayyan shaxslarning roziligi;

uchinchisi – mahrning belgilanishi;

to‘rtinchisi rasmiy qoidalarga rioya etilishi bilan belgilanadi.

Mana shu to‘rt talabdan kelib chiqib oila tashkil topadi.

Nikohning birinchi bosqichi kelishish, unashtirish (xutba) bo‘lib, unda kuyov o‘zi yoki vakili orqali kelinning otasi, vasiysi yoxud ishonchli kishisiga taklifini aytadi. Erning ayolga ajratadigan mulki (mahr) va nikoh shartnomasi (sig‘a)ga kiruvchi boshqa shartlar xususida ham shu vaqtda kelishib olinadi. Islom manbalarida keltiriladiki, nikohning erkak va ayol uchun asosiy foydali tomoni zinoga botmaslik va farzandlarni dunyoga keltirishdir.

Nikoh asosida bashariyat nasli dunyoni to‘ldirib kelmoqda. Shahvat esa farzand dunyoga kelishi sababidir. Agar insonning shahvati qo‘zg‘asa, uni na aql, na din bu yo‘ldan qaytarolmaydi. Shu sabab payg‘ambarimiz, kimki nikohdan o‘tishga imkoni bo‘lmasa, ro‘za tutishini buyurganlar. Toki oilalali bo‘lgunlaricha gunohga botmasliklari uchun.

Nikoh erkak va ayolni bir-birlariga yaqinlashtirib, hazillashish, o‘ynash, muammolarini aytib yengillashish, birga o‘tirib



rohatlanish vazifasini ham bajaradi. Inson doimo lazzat bilan *rohatlanib tursa*, stresslardan qutulib, faoliyatida unumdorlik oshadi. Jufti bilan yaqin muomalada bo'lish qalbni rohatlantirib, o'jarlikni kamaytiradi. Islom shariatiga binoan ikki sevishgan qalb uchun ham nikohdan boshqa najot yo'qdir. Nikohdagi xursandchilik go'zal va sog'lom turmush kechirishga sabab bo'ladi.

Oila mustahkamligi va uning shaxs farovonligidagi o'rni, ijtimoiy hayotda erkak va ayolning nikohdan o'tib baxtli hayot kechirishi bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Insonning o'zini baxtli sezishi oilaviy hayotini mukammal ko'rish omillariga bog'liqdir. Ayniqsa, jamiyatimizda insonlarga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat-izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik tuyg'ulari mustahkam oila muhitida yaqqol namoyon bo'ladi.

Oilani ulug'lagan xalq o'zini ulug'lagan xalqdir. Oila jamiyatda farovon hayotni ta'minlashning dunyoviy instituti, insoniyat hayotini ham biologik, ham sotsiologik tartibga solish vositasidir.

Oila kodeksiga ko'ra, barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarining hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmatini, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Islom shariatida ham oilaviy munosabatlarga oid barcha masalalar alohida belgilab qo'yilgan. Zero, ular oilaning ahl-



inoqligini ta'minlashga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham islomda bu jihatlarga ham e'tibor qilingan. Ulardan bo'yin tovlash, ularni bajarishdan qochish va o'z holiga tashlab qo'yish shariat ko'rsatmalariga zid ishlar hisoblanadi. Jumladan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda mazkur holatlar ham alohida ta'kidlangan:

دَخَلَتْ امْرَأَةً عُثْمَانَ بْنِ مَظْعُونٍ وَاسْمُهَا خَوْلَةُ بِنْتُ حَكِيمٍ عَلَى عَائِشَةَ وَهِيَ بَدَأُ الْهَيْئَةَ فَسَأَلَتْهَا عَائِشَةُ: مَا شَأْنُكَ؟ فَقَالَتْ: زَوَّجَنِي يَقَوْمُ اللَّيْلِ وَيَصُومُ النَّهَارَ فَدَخَلَ النَّبِيُّ ﷺ فَذَكَرْتُ عَائِشَةَ ذَلِكَ لَهْ فَلَقِيَ النَّبِيُّ ﷺ عُثْمَانَ بْنَ مَظْعُونٍ فَقَالَ: يَا عُثْمَانُ إِنَّ الرَّهْبَانِيَّةَ لَمْ تُكْتَبْ عَلَيْنَا أَمْ لَكَ فِيَّ أَسْوَةٌ حَسَنَةٌ! فَوَاللَّهِ إِنِّي لَأَخْشَاكُمْ لِلَّهِ وَأَحْفَظُكُمْ لِحُدُودِهِ.

Xavla bintu Hakim ismli Usmon ibn Maz'unning xotini Oishaning oldiga kirdi. O'sha ayol (o'sha davrda turmush qurgan ayollar kabi) ziynatlanmagan edi. Shunda Oisha undan "ahvoling yaxshimi?", - deb so'radi. U esa, "erim kechalar bilan ibodat qilib chiqadi, kunduzlari ro'zador bo'ladi" (ya'ni meni o'z holimga tashlab qo'ydi), - dedi. Oisha esa Nabi (s.a.v.) ga kirganlarida holatni aytdi. So'ng Nabi (s.a.v.) Usmon ibn Maz'unga uchrashib, unga "Ey, Usmon! Darhaqiqat, tarkidunyochilik bizlarga farz qilinmagan. Bas, sen uchun menda biror chiroyli namuna yo'qmidi!? Allohga qasamki, Men sizlardan ko'ra Allohdan qo'rquvchiroqman va Uning hududlariga rioya qiluvchiroqman", - dedilar.

O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga ko'ra, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik



huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar. Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar.

Erning kundalik ro'zg'or ishlarida ham xotiniga ko'makdosh bo'lishi islomda maqtalgan ishlardan. Zero, bu ham oila faravonligiga xizmat qiladi. Payg'ambar (s.a.v.)ning turmush tarzlarida ham bu holat namuna sifatida kelgan. Zero, oddiy insonlar u zotdan har jabhada ustun bo'lishni da'vo qila olmaydi.

Tobein olimlardan al-Asvad ibn Yazid (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda Payg'ambar (s.a.v.)ning oilaviy turmush tarzi quyidagicha bayon qilingan:

الأَسْوَدُ قَالَ: سَأَلْتُ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا مَا كَانَ النَّبِيُّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ يَصْنَعُ فِي بَيْتِهِ؟ قَالَتْ: كَانَ يَكُونُ فِي مِهْنَةِ أَهْلِهِ فَإِذَا حَضَرَتِ الصَّلَاةُ خَرَجَ إِلَى الصَّلَاةِ.

Men Oisha(r.a.)dan "Nabiy (s.a.v.) uyida nima ishlar qilardi?", deb so'radim. U (Oisha) "Nabiy (s.a.v.) uyida ahlining ishlariga ham yordamlashar edi. Namoz vaqti bo'lganda esa namozga chiqib kelardi", - deb javob berdi.

Shariatda oilaning ta'minoti er zimmasidagi vojib amallardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Qur'oni karimda quyidagicha zikr qilingan:

وَعَلَى الْمَوْلُودِ لَهُ رِزْقُهُنَّ وَكِسْوَتُهُنَّ بِالْمَعْرُوفِ

Ularni (ya'ni onalarni) yaxshilik bilan yedirib-kiydirmoq otaning zimmasidadir (Baqara surasi, 233-oyat).

Shunday ekan, er oilaning kundalik turmushi uchun yetarli miqdorni ado etishga majbur hisoblanadi. Ba'zan erning moddiy



imkoniyati bo'lsa-da, xotini va bolalariga yetarli ta'minot bermaslik holatlari ham uchrab turishi mumkin. Jumladan, bu kabi holat borasida Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadisda zikr qilingan:

عَنْ عَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا: أَنَّ هِنْدًا بِنْتَ عُتْبَةَ قَالَتْ: يَا رَسُولَ اللَّهِ، إِنَّ أَبَا سُفْيَانَ رَجُلٌ شَحِيحٌ وَلَيْسَ يُعْطِينِي مَا يَكْفِينِي وَوَلَدِي إِلَّا مَا أَخَذْتُ مِنْهُ وَهُوَ لَا يَعْلَمُ، فَقَالَ: خُذِي مَا يَكْفِيكَ وَوَلَدِكَ بِالْمَعْرُوفِ.

"Hind bintu Utba: Ey, Rasululloh! Abu Sufyon o'ta baxil odam, menga va bolamga yetadigan (kundalik) ta'minotni bermaydi. Magar, unga bildirmay olsamgina bo'ladi", - dedi. U zot: "O'zingga va bolangga yetarlisini to'g'rilikcha ol", - dedilar.

Garchi ushbu hadisda er baxillik qilib, ta'minotni oz bersa, xotin undan berkitib olishi mumkinligi bayon qilingan bo'lsa-da, bunda faqat ehtiyoj nazarda tutilgan. Aslida, er vaqtida ta'minotni berib turgan bo'lsa yoki u tejankor bo'lsa, xotin shunga qanoat qilgani va qo'shimcha ta'minotni esa erning ruxsati bilan qilgani maqsadga muvofiqdir. Zero, u oiladagi totuvlik va birdamlik bardavom bo'lishi sabablaridan biri hisoblanadi.

Demak, oilaning mustahkam va farovon bo'lishida er va xotin barobar mas'ul hisoblanar ekan. Har ikki tomonning mas'uliyati va vazifalari birgina niyat bilan ibodat darajasidagi savobli amalga aylanishi mumkin. Aksincha, ulardan bo'yin tovlash va qochish bir jihatdan gunoh amal bo'lsa, ikkichi tomondan tushunmovchilikka sabab bo'ladi.



NIKOH TUZISH SHARTLARI

Nikoh inson zotining, millat va xalqning mavjudlik sharti. Nikoh hayotning, tiriklikning, umrboqiylikning boshidir, hech bir xalq, millat nikoh munosabatlarini yo'lga qo'ymay, oilani "muqaddas birlik"ka, ideal uyg'unlikka aylantirmay o'zini saqlab qola olgan emas.

Nikoh – er-xotin o'rtasidagi tenglik va o'zaro xohish asosida tuzilgan ahd-u paymon bitimidir, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Shu bilan birgalikda, nikoh jamiyat tomonidan tasdiqlangan nasl va jinlar o'rtasidagi munosabatlar shaklini o'zida ifoda etadi, ya'ni jinsiy aloqa va nasl qoldirishni tartiblashtiradi.

Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" asarida yozadi: "Biror xalq nikohsiz yashashining iloji yo'q, chunki nikoh ong uchun yaramas, jirkanch bo'lgan shahvoniyat avj olishining oldini oladi. Insonlardagi tartibsiz jinsiy aloqa hayvonlikdan ham tuban bo'lgan yaramaslikdir", – deb ta'kidlasa, A.Fitratning ta'kidlashicha: "Nikoh – bu hayotda do'st, baxt va baxtsizlikda sherik, g'am-qayg'u vaqtida hamdam, xushnud damlarda bir-birlariga yor bo'lishni istagan erkak va ayolning shaxsiy va ijtimoiy vazifalarini birgalikda bajarishlari lozim bo'lgan ittifoqdir"³.

Mutaxassislar fikricha, nikohning diniy va dunyoviy shakllari mavjud. Biz nikoh munosabatlarini dunyoviy, diniy, milliy asoslarda tahlil qilamiz.

³ Эргашева М. Фитрат меросида никоҳ ва оила масалалари // Қонун ҳимоясида. – Тошкент, 2003. – № 4. – Б. 28.

Dunyoviy nikoh barcha davlatlarda majburiy belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, diniy nikoh ayrim diniy davlatlar va jamiyatlarda uchraydi. O'z qadriyatlariga sodiq xalqlar nikoh bilan bog'liq milliy urf-odatlarini ham bajaradilar. ***Bizning davlatimizda oila qurayotgan kelin-kuyov, davlat (FHDY) idoralaridan ro'yxatdan o'tishlari bilan nikohni amalga oshirishlari shart. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.***

Nikohning diniy va milliy shakllari ixtiyoriy bo'lib, "nikoh bu ikki jins vakillarining o'zaro roziligi asosida tuzilgan ittifoqdir"⁴. ***Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.***

Avvalo, nikoh faqatgina jismoniy juftlashish emas, balki ma'naviy-ruhiy mushtaraklik uyg'unlashuvdir. Insonning boshqa jonzotlardan farqli jihati ham aynan mana shu ma'naviy-ruhiy mushtaraklik bilan belgilanadi. Shunisi ahamiyatlilik, nikoh ***ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun guvohlar ishtirokida amalga oshiriladi. Sababi jamoatchilikka ikki jins vakilining oila qurayotganini oshkor qilish hisoblanadi.***

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

⁴ "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Т., 2003. 6-жилд. – Б. 355.



Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi.

Quyidagi hollarda nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi:

loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida.

Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Bugungi kunda tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OITS kasalliklarini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Islom dinida ham oilaviy munosabatlar bilan bog'liq me'yorlar alohida belgilangan bo'lib, ularning ba'zilar o'zgarmas asosiy tamoyillar bo'lsa, ayrimlari muayyan tarixiy jarayonlar ta'sirida takomillashib borgan.

Ahl as-sunna va-l-jamoa olimlarining mavzu doirasidagi fikrlari va dalillari bugungi kundagi sohaga oid muammolarni ilmiy asosda bartaraf etishga xizmat qiladi. Xususan, islomning ilk davrida nikoh shartnomasi og'zaki tarzda eng kamida ikki erkak musulmon guvohligida tuzilgan va e'lon qilingan. Keyinchalik olimlar tomonidan davr va vaziyat taqozosi inobatga olingan holda odatdagi eng kamida ikki erkak musulmon guvohligida og'zaki tuzilgan va e'lon qilingan nikohga qo'shimcha tarzda uni yozma shaklda rasmiylashtirish ham joriy qilingan. U ikki nusxada bo'lib, bir nusxa qozida va ikkinchisi er-xotinda saqlangan. Zero, islomda nikoh tantanali ahd (ya'ni bir umrlik rishta) bo'lib, shariat uning barqarorligini kafolatlaydigan qoidalar va tartiblarni belgilagan. Nikoh haqiqiy deb tan olinishi uchun u belgilangan aniq talablarga qat'iy mos bo'lishi shart. Aks holda, u nikoh sifatida tan olinmaydi. Oqibatlar esa jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bevosita nikoh ahdiga oid holatlar rukn, shart, sunnat, mustahab kabi shariat tamoyillarida aks etgan. Ahl as-sunna va-l-jamoa olimlarining nikoh borasidagi fikrlari jamlanmasida, asosan, nikohning uchta rukni mavjud:

Birinchi. Erkak va ayol nikohdan to'sadigan moneliklardan xoli bo'lishi. Erkakni va ayolni o'zaro oila qurishdan to'sadigan holatlar turlicha. Shulardan biri bu – ularning yaqin qarindosh, ya'ni mahram bo'lishlari nikohni qat'iy ta'qiqalaydi. Ikkinchidan, ulardagi sog'liq bilan bog'liq jiddiy kasalliklar ham oila qurishga monelik qilishi tabiiy. Shuningdek, ular o'rtasidagi kufu' (ya'ni, nasl-nasab, kasb-kor va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan) tenglik yo'qligi ham nikohlanishga to'siq bo'lishi mumkin.

Ikkinchi. Erkakning aniq jumla bilan oila qurishga roziligini og'zaki aytishi lozim. Kuyovning ushbu gapini kelin eshitishi kerak. Ushbu iqror shariatda "ijob" (ijob, o'tgan zamonda)



deb nomlangan va uningsiz garchi nikoh tuzilsa ham, u botil bo'ladi.

Uchinchi. Ayolning aniq jumla bilan oila qurish taklifini qabul qilishidir. Kelinning ushbu gapini kuyov eshitishi kerak. U shariatda "qabul" (qabul, o'tgan zamonda) deb nomlangan va uningsiz garchi nikoh tuzilsa ham, u botil bo'ladi.

Demak, mazkur uchta rukn nikohning negizini tashkil etadi. Ularda tomonlarning – erkak va ayol o'zaro oila qurishiga ixtiyoriy roziligini og'zaki tarzda bildirishi lozim. Ulardan birortasi topilmasa, nikoh tuzish mumkin emas.

Nikohga tegishli ikkinchi kategoriya shart deb nomlanadi. U ham "nikohning shartlari" va "nikohdagi shartlar" kabi ikki turkumga ajratilgan. Nikohning shartlari deganda, shariat tomonidan belgilangan tartib nazarda tutiladi va jarayonda har qanday holatda ham uning yo'q bo'lishi mumkin emas.

Nikohdagi shartlar deganda, nikohlanuvchi erkak va xotinning har ikkalasi tomonidan yoxud u ikkisidan biri tomonidan qo'yilgan talab nazarda tutiladi. Ular talab qo'yishi yo qo'ymasligi mumkin, ya'ni bu ixtiyoriy o'zaro kelishiladigan holatdir. Garchi u ixtiyoriy ish bo'lsa-da, kelishilgach unga amal qilish lozim. Qur'oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا أَوفُوا بِالْعُقُودِ

Ey, imon keltirganlar! Bitimlar (ahdlar)ga vafu qilingiz!
(Moida surasi, 1-oyat).

Nikohning shartlari jami to'rttadir. Ularning birortasi bo'lmasa, nikoh to'g'ri hisoblanmaydi:

1. Kuyov va kelinning tayin qilinishi, ya'ni ikki tomon bir-birini bilishi. Shariatda nikoh o'qitmoqchi bo'lganlar o'zaro bir-biriga qarab olishga ruxsat berilgan. Rasululloh (s.a.v) bunday deganlar:



"Borib, uni ko'rib olgin! Chunki u oralaringizda muhabbat davomliroq bo'lishiga munosibroq ishdur".

2. Kuyov va kelinning bir-biri bilan oila qurishga roziligi. Har ikki tomon nikohga ixtiyoriy rozi bo'lishi lozim. Ularga hech qanday bosim va tazyiq bo'lmasligi shart.

3. Kelinning yaqin qarindoshi nikoh jarayonida ishtirok etishi. Ayol ota-onasi va aka-ukalari singari yaqin qarindoshlaridan bekitib oila qurishi mumkin emas. Ahl as-sunna va-l-jamoaning aksar ulamolarining fikricha, nikoh haqiqiy bo'lishi uchun ayolning yaqin qarindoshi roziligi muhim sanalgan.

4. Nikoh aqdiga guvohlik. Shariatda nikohga guvohlikning eng kam miqdori ikki ozod ishonchli erkak yoki bir ozod ishonchli erkak va ikkita ishonchli ozod ayol bo'lib, ular kuyov va kelin bir joyda jamlanishi hamda kuyov va kelinning aytgan ijob-qabulini shaxsan eshitishi lozim. Zero, guvohlarning joriy qilinishidagi maqsadlardan biri nikoh tuzilganini ommaga e'lon qilishdir. Jumladan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda bu holat alohida ta'kidlangan:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: أَعْلِنُوا هَذَا النِّكَاحَ وَاجْعَلُوهُ فِي الْمَسَاجِدِ وَاضْرِبُوا عَلَيْهِ بِالذُّفُوفِ.

Rasululloh (s.a.v) dedilar: "Nikohni oshkora qilinglar va uni masjidlarda ado qilinglar! Nikohda do'mbira chalinglar".

Nikohning masjidida bajarilish sababi bu – bir-ikki jo'ra va do'stlarning guvohligida emas, balki u ommaning oldida qilinishi kerak, deganidir. Shuningdek, ko'pchilikning e'tiborini jalb qilib, ularni boxabar qilish bor.

Mahr ham nikoh aqdlarining muhim qismlaridan biri sanaladi. Zotan, kuyov uni nikoh tuzilishidan oldin yoki keyin kelinga to'lab berishi kerak.



NIKOHNING AXLOQIY MOHIYATI

Sharqda, xususan, o'zbek xalqida ham nikohning axloqiy jihati ustuvor hisoblanib, oilaning asosi hisoblanmish nikohning zamirida avvalo ishonch, sadoqat, vafo, sevgi-muhabbat, mehr-muruvvat, majburiyat – mas'uliyat, burch kabi axloqiy kategoriyalar o'zining ifodasini topgan. ***Nikoh inson o'rtasidagi ijtimoiy yoki diniy tan olingan birlashma bo'lib, ular o'rtasida huquq va majburiyatlarni o'rnataadi.*** O'zbek xalqida nikoh munosabatlari qadimdan urf-odat, an'analar tarzida shakllanib, turli ijtimoiy, iqtisodiy, diniy ta'sirlar natijasida o'zgarib kelgan va ***ming yillar davomida nikoh ijtimoiy me'yorlar bilan tartibga solinib, jamiyat a'zolari, mahalla-ko'y nazorati ostida o'tkazilgan.*** Axloqiylik mezonlari asosida tashkil topgan nikohda tomonlarning bir biriga ishonchi va kelin-kuyovning sevgi-muhabbati yetakchilik qiladi. Darhaqiqat, o'zbek xalqida nikoh marosimlarining mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda asrlar davomida shakllangan sevgi-muhabbat, baxt, hayotning ma'nosi, burch, adolat, mas'uliyat, or-nomus, vafo, sharm-hayo kabi axloqiy me'yorlar mujassamlangani guvohi bo'lamiz. Axloqiylik asosida tashkil topgan oilada har ikki tomonning ixtiyoriy roziligi ham milliy, ham diniy qadriyatlarimizga mos bo'lib, nikohdan qoniqish kayfiyatini shakllantiradi.

Nikoh – bu shunday ilohiy va axloqiy ahdk, nikohlanayotgan kelin-kuyovlarning (erkak va ayolning) zimmasiga bir qator insoniylik talablarini, burch, mas'uliyat va majburiyatlarni

yuklaydi. Ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qilish, oilaning barcha a'zolarini shaxs sifatida qabul qilib, ular bilan o'zaro kengashib, vazifalarni o'z zimmasiga olish kabi axloqiy sifatlarni shakllantirib boradi.

Quyida nikohda muhim o'ringa ega bo'lgan axloqiy tushunchalarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Birinchisi bu axloqning mezoniy tushunchalaridan biri – muhabbat bo'lib, jamiyat ijtimoiy ma'naviy muhitida oila barqarorligini, nikohning mustahkamligini muhabbat omilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki “juda ko'p irfoniy tushuncha-istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi”⁵. Muhabbat zo'ravonlik yoki zo'rma-zo'rakilik bilan chiqisha olmaydi. U me'yorlar, an'analar, qonunlarga bo'ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas'uliyatni majburiyatni yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u insonni o'z burchiga sadoqat bilan yondashuvini ta'minlaydi. Ikkinchisi bu – burch axloqiy tushunchasi bo'lib, u nikohga kirayotgan kelin va kuyovda insoniy sifatlarni mujassamlashuvini ta'minlabgina qolmay, ularning har birining zimmasiga muayyan mas'uliyat hamda majburiyatni yuklaydi. Vaholanki, burch irodaviy tuyg'u sifatida har ikki tomonda (erkak va ayolda) hamkorlikda faoliyat yuritib, jamiyatda o'z-o'zini anglash hamda turmush tarzini adolat bilan olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Demak, nikoh bu erkak va ayolning adolatli uyushmasi bo'lib, uning nafaqat tuzilishi, balki uning keyingi mavjudlik holati ham aynan ikki yoshning bir-biriga nisbatan nohaqlik, zulm, yomonlik qilmasliklari shartidir. Shu bois ham oila qurish ostonasida turgan muqaddas nikohga kirishda har bir yigit va qizda (erkak va ayolda) bir qator axloqiy fazilatlarini

⁵ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. К.1. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1996. – Б. 48.



qaror toptirish maqsadga muvofiqdir. Demak, yigitlarimiz, avvalo, oila boshlig'i sifatida qat'iy irodali, mas'uliyatli, mehnatsevar, halol, tadbirkor, tashabbuskor, jasur, shijoatli, o'zaro muomalada xushfe'l, xushso'z, sabr-qanoatli odil bo'lishlari, qizlarimiz esa iboli hayoli, nazokatli va xushmuomala, sabr-qanoatli, itoatli, tadbirkor va tejamli, ozoda va sarishta bo'lmoqlari kerak bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, oilada erkak ulug'vor, oliyjanob, kuch-qudrat, matonat va jasorat sohibi, ayol esa oqilalik, latofat, go'zallik, nafislik va noziklik kasb etishi muhimdir.

Erkak va ayolning bir-biriga intilishi tabiiy hodisa bo'lib, bu munosabat bevosita oilaning asosini tashkil etadi. Jamiyat erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy-biologik munosabatning qay tarzda ro'y berishiga befarq qarab tura olmaydi. Jamiyat a'zolarining o'zaro munosabati madaniyatining takomillashuvi, kamoloti jamiyatning asosidir. Shuning uchun ham har bir jamiyatda erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy-biologik munosabatlar betartib, stixiyali ro'y bermay, nikoh asosida milliy, diniy va huquqiy mezonlar asosida tartibga solinadi. Nikohga kirishishda ijtimoiy-demografik xususiyatlar ham sabab bo'ladi. Bular juftning ijtimoiy maqomi, jamiyatda tutgan o'rni, kasb-kori, ma'lumot darajasi, millati va diniy e'tiqodi, moddiy ta'minlanganligi kabilardir. Ko'pincha ayni shu belgilar, yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlariga tezroq yoqib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Jamiyat muhitida alohida o'rin tutuvchi nikoh munosabatlari ijtimoiy ahamiyatga molik hodisadir. Qadimdan shakllanib, bizgacha yetib kelgan nikoh marosimlari ajdodlarimizdan qolgan bebaho madaniy-ma'naviy qadriyat bo'lib, u tiriklik shukronasi,

orziqib kutilgan ezgu tilaklar, shod-u xurramlikning ramziy ifodasidir.

Nikohning oila mustahkamligidagi ahamiyati – bu yoshlarni yangi hayotga moslashtirishdir. Bu, avvalo, oilaga, mahalla va qarindoshlar ichida avlodning davomchilarini dunyoga keltirish singari uzluksizlikni yaratishdan iborat. ***Nikoh marosimlari yoshlarni, birinchi navbatda, oila degan jamiyat bo'g'iniga birlashtiradi, oilaviy munosabatlarning psixologik, etnomadaniy jihatlariga e'tibor berishga majbur qiladi. O'zidan keyingi naslni qoldirishni o'ylaydi va farovon, baxtli hayot sari qadam tashlaydi.***

Nikoh insonning baxtli hayotni tuyishi, his qilishi va shu tufayli yangi hayotni boshlashidir. Nikoh tufayli erkak o'zining jinsiy maylini qondirish, umr yo'ldoshini topish, o'z avlodining davomchisi bilan turmush qurish va asosiysi oilani boshqarish singari yutuqlarga ega bo'ladi. Erkak ham, ayol ham o'zining baxtli onlarini o'z jufti haloli orqali ko'radi. Erkak ham, ayol ham o'zining poklanish, jinsiy, ijtimoiy, ma'naviy qoniqish, himoya qobig'iga ega bo'lish singari baxt tushunchalariga ega bo'ladi.

Har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. O'zbek nikoh marosimlarining axloqiy mohiyati yosh avlod qalbida nafis did hamda yuksak fazilatlarini shakllantirish, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aholi orasida nikoh marosimlarini, urf-odatlar rang-barangligini saqlab qolish va to'yning sarf-xarajatlarini ixchamlashtirish borasida me'yor, vaqt bo'yicha mezonlar ishlab chiqilishi, qat'iy reglamentlar o'rnatilishi, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish nikohning axloqiyligini saqlab qolishga obyektiv asos bo'ladi. O'zbek nikoh marosimlari orasida to'y alohida o'rin egallab kelgan. Nikoh marosimlari millatning,



xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ruhiy, milliy-madaniy ehtiyojlari va qiziqishlari asosida yuzaga kelgani bois hech bir a'zosini befarq qoldirmaydi. An'anaviy qadriyatlarning umrboqiyiligi, mustaqillik davrida millatimiz, xalqimiz yoshlarida tarixiy-madaniy merosga, xalq bayramlari, tomoshalari va dam olish an'analariga qiziqish oshganining negizi ham shundandir.

ISLOMDA NASL-NASAB MUHOFAZASI

Islom dinida nasl-nasab alohida e'tibor qaratilgan masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bu, bir tomondan, oila qurishdagi asosiy maqsadlardan biri bo'lsa, ikkinchi jihatdan, uning mustahkamligidagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shuning uchun ham nikohlanuvchi tomonlar nikohlanishdan oldin, birinchi navbatda, o'zaro oilaviy sharoit va ajdodlarni surishtirishi lozim bo'ladi. To'g'ri tanlov esa ma'nan sog'lom tafakkurli va jismonan baquvvat avlodning dunyoga kelishiga xizmat qiladi. Jumladan, Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilingan:

Men Rasululloh (s.a.v.)dan bunday deganini eshitganman: "... Sen kim (ya'ni qaysi ayol) bilan oila qurayotganingga qara! Chunki irq davom etuvchidir".

Ya'ni bunda farzandga onaning fe'l-atvori va xislatlari nasliy o'tishi aytilgan bo'lsa ham, kuyovni tanlashga ham e'tibor qaratish lozimligiga dalolat qilingan.

Darhaqiqat, bu borada boshqa hadislar ham rivoyat qilingan. Bu kabi dalillar esa shariat zurriyatning har jihatdan sog'lom va toza bo'lishiga e'tibor qaratishga undaganini anglatadi. Shuning borobarida har qanday holatda farzandni avaylashga va huquqlarini muhofaza qilishga buyurilgan. Xususan, islomda bolaga otalik va onalik masalasi aniq me'yor asosida belgilab qo'yilgan. Bu boradagi soxta da'volar esa katta gunoh hisoblanadi. Biror shaxsning o'zga bir kishini "otam" deb da'vo qilishi gunoh bo'ladi. Xususan, hadisda quyidagicha marhamat qilingan:



Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Kim o‘zining haqiqiy otasidan boshqani “otam” deb da‘vo qilsa va uning yolg‘onligi ma‘lum bo‘lsa, u kofir (ya‘ni kufroni ne‘mat) bo‘libdi”.

Biror ayolning o‘zga bir kishini “bolamning otasi” deb yolg‘on da‘vo qilishi va biror erkakning o‘z farzandidan bila turib voz kechishi ham katta gunoh bo‘ladi. Xususan, ushbu holatlar haqida hadisda quyidagicha marhamat qilingan:

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Qaysidir ayol boshqa birovdan bo‘lgan farzandini begona bir qavm (odami)dan deb yolg‘on da‘vo qilsa, unga Alloh taoloning rahmatidan biror narsa berilmaydi va Alloh uni jannatiga kiritmaydi. Qaysidir erkak o‘z farzandiga qarab turib, undan tonsa, (qiyomatda) uni Alloh taolo O‘z rahmatidan to‘sadi va avval hamda keyin o‘tgan qavmlar oldida sharmanda qiladi”.

Demak, islomda nasl-nasabni asrash va uni davom ettirish muhim masalalardandir. Shuning uchun oila qurishda erkak va ayol tomonining ajdodlarigacha e‘tibor qaratilgan. Zotan, bu ham mohiyatan oilaning mustahkamligini ta‘minlaydigan asoslardan sanaladi. Shuning borobarida har qanday vaziyatda ham nasl-nasabni soxta da‘vo qilishdan qaytarilgan bo‘lib, buni qilish katta gunohlar sirasiga kiradi. Zamonaviy qonunchilikda esa bolaning nasl-nasabini belgilashning asoslari belgilangan bo‘lib, bolaning shu onadan tug‘ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko‘ra bola tibbiy muassasada tug‘ilmagan holda esa boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o‘limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so‘ng uch yuz kun ichida tug‘ilgan bolasi nikohda tug‘ilgan bola hisoblanadi. Agar nikoh tugaganidan keyin

uch yuz kun ichida bola tug‘ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo‘lsa, bola yangi nikohda tug‘ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Bolaning onasi bilan nikohda bo‘lmagan shaxsning otaligi o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo‘lmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o‘zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, otalikni belgilash to‘g‘risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ariza bolaning tug‘ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek, bola tug‘ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to‘g‘risida bola tug‘ilgandan so‘ng er-xotin birgalikda ariza berishining imkoni bo‘lmay qolishi yoki mushkul bo‘lishini ko‘rsatuvchi asoslar mavjud bo‘lsa, tug‘ilajak bolaning o‘zaro nikohda bo‘lmagan ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli. Otalikni belgilash rad etilganda, o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.



BOLALARNING ISMI, OTASINING ISMI VA FAMILIYA OLISH HUQUQI

Farzand bu – Alloh taolo tomonidan ota-onaga in’om etilgan ulug’ ne’matlardan biri. Shuning uchun ham uni qadrlash va e’zozlash lozim bo’ladi. Bolaning to’g’ri parvarishiga ota-onaga mas’ul va javobgar bo’lib, tomonlarning majburiyatlari belgilangan. Shuningdek, shariatda bolaning huquqlari ham qayd qilib qo’yilgan. Ulardan biri bu – unga chiroyli ism tanlash va qo’yishdir. Zero, tanlangan ism masxara yoki xijolatchilikka sabab bo’lmasligi va yaxshi ma’noni anglatishi kerak. Ismning chiroyli bo’lishi borasida mashhur sahobiylerden Abu Dardo (r.a.) dan qilingan bir hadisda quyidagicha ta’kidlangan:

Payg’ambar (s.a.v.) deganlar: “... Bas, ismlaringizni chiroyli qilinglar”.

Shuningdek, ma’nosi tushkunlik yoki yomonlikni anglatuvchi ismlar bilimsizlik yoki boshqa sababdan qo’yilgan bo’lsa, uni to’g’irlash kerak bo’ladi. Bu borada Sa’id ibn al-Musayyab (r.a.) dan rivoyat qilingan:

“(Sa’id ibn al-Musayyab) bobosi Hazn Rasululloh (s.a.v.)ni ziyorat qilganlarida: “Isming nima?” – dedilar. “Mening ismim Hazn (ya’ni qiyin)”, dedi. Rasululloh (s.a.v.): “Lekin sen Sahlsan (ya’ni yengil)”, dedilar. “Otam qo’ygan ismimni o’zgartirmayman”, – dedi. Ibn al-Musayyab qo’shimcha qilib dedi: “Shunday qilib, o’shandan beri bizda (hayotimizda) mahzunlik (ya’ni qiyinchilik) bor”.

Xullas, xalq orasida “har kimning ismidan nasibasi bor” degan gapda ham muayyan ma’noda haqiqat bor. Shuning uchun ota-onaga farzandiga ism tanlashda mas’uliyat bilan yondashish talab qilinadi. Shuningdek, ota farzandiga otalik sifatida o’z familiyasini berishdan bosh tortishi shariat ko’rsatmalariga ziddir. Chunki bu holatda yuqoridagi hadisda keltirilgani kabi otaning o’z farzandidan tonishi bor.

Ushbu o’rinda mavzuning ikkinchi bir tomoniga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Darhaqiqat, farzand Alloh taoloning ota-onaga bergan ulug’ ne’matlaridan biri bo’lib, bu Yaratganning iznidagi ish va ilmdir. Shunga ko’ra, ba’zan Alloh taolo oilaga ham o’g’il, ham qiz farzandni barobar beradi va ba’zan esa faqat o’g’il yoki faqat qiz farzand beradi. Ayrim holatlarda esa bu ne’mat berilmasligi ham mumkin. Chunonchi, insonlarning eng mukarramlari sanalgan payg’ambarlar (a.s.)ning hayotida ham mazkur holatlar mavjud. Ya’ni payg’ambarlarning barchasiga ham ushbu ne’mat bir xilda berilmagani manbalarda bayon qilingan. Jumladan, Ibrohim (a.s.)ga faqat o’g’il berilgan bo’lsa, Lut (a.s.)ga faqat qiz berilgan. Shuningdek, Ayyub (a.s.) va Muhammad (s.a.v.)ga o’g’il-qiz farzandlar barobar ato etilgan. Ammo Alloh taolo Yahyo va Iso (a.s.)ga zurriyotsizlikni iroda qilgan.

Demak, Alloh taolo xohlagan bandasiga o’g’il va qizni barobar beradi, xohlagan bandasiga faqat o’g’il yoki qiz farzand beradi. U xohlasa, bandasiga zurriyotsizlikni iroda qiladi. Shariatga ko’ra, oilada faqat qiz farzand bo’lgan taqdirda, hatto zurriyotsiz bo’lgan holatda ham, bularni uning buzilishga sabab qilish mumkin emas.



AJRIM HOLATIDA FARZANDLARNING HUQUQI VA YETIM BOLALAR TA'MINOTI

Islom dini nikohning muqaddasligini himoya qiladi va oilani jamiyatning asosiy birligi deb biladi. Shu tufayli ham unda oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga buyurilgan. Ammo ayrim hollarda turli sabablar tufayli oilada ajrim sodir bo'lishi mumkin. Shariatda uning sabablari taqozosiga ko'ra ajralish huquqi er va xotin tomonda ham mavjud. Zotan, fiqhda ajralishga ruxsat mavjud bo'lsa-da, eng qaytarilgan ishlardan biri sanaladi. Buning sababi esa shariat har qanday holatda ham oilani saqlab qolish tarafdoridir. Jumladan, Muhorib (r.a.)dan rivoyat qilingan bir hadisda quyidagicha zikr qilingan:

عَنْ مُحَمَّدِ بْنِ أَبِي حَسْبٍ، قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: مَا أَحَلَّ اللَّهُ شَيْئًا أَبْغَضَ إِلَيْهِ مِنَ الطَّلَاقِ.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Alloh nazdida O'zi ruxsat bergan narsalardan eng yomoni bu - taloqdir".

Shunga ko'ra, nafaqat er, balki xotin ham oilani saqlashga mas'uldir. Xotinning eridan jiddiy asossiz ajrimni so'rashi ham mumkin emas. Jumladan, Savbon (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda quyidagicha keltirilgan:

عن ثوبان رضي الله عنه قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: أيما امرأة سألت زوجها طلاقاً من غير بأس فحرام عليها رائحة الجنة.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Qaysi bir ayol ajrashishni keltirib chiqaradigan jiddiy sabab bo'lmagan holatda eridan taloqni qilishni so'rasa, unga jannatning hidi harom bo'ladi (ya'ni jannatga kirmaydi)".

Shariatda imkoni boricha oilani saqlab qolish va er-xotinni murosaga keltirish uchun ikki tomondan bittadan ishonchli vakil tayinlanish lozimligi aytilgan. Jumladan, Qur'oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

وَإِنْ خِفْتُمْ شِقَاقَ بَيْنِهِمَا فَابْعَثُوا حَكَمًا مِنْ أَهْلِهِ وَحَكَمًا مِنْ أَهْلِهَا إِنْ يُرِيدَا إِصْلَاحًا يُوَفِّقِ اللَّهُ بَيْنَهُمَا إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلِيمًا حَكِيمًا

Agar ular (er-xotin)ning oralari buzilib ketishidan qo'rqsangiz, er oilasidan bir hakam, xotin oilasidan bir hakam yuboringiz. Agar (er-xotin) islohni xohlasalar, Alloh o'rtalarini muvofiqlashtirgay. Albatta, Alloh bilimdon va xabardor zotdir (Niso surasi, 35-oyat).

Odatda er-xotin o'rtasida ajralish jarayoni boshlangan bo'lsa, ularning yarashishi uchun 3 oy muddat berilgan. Mabodo yarashtirishning imkoni bo'lmasa, ajrimni janjalsiz, yaxshilik bilan qilish ta'kidlangan. Jumladan, Qur'oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

فَإِذَا بَلَغَ الْأَجَلُ مَا أَجَلْتُمْ فَأَمْسِكُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ أَوْ فَارِقُوهُنَّ بِمَعْرُوفٍ وَأَشْهِدُوا ذَوَيْ عَدْلٍ مِنْكُمْ وَأَقِيمُوا الشَّهَادَةَ لِلَّهِ ذَلِكَمْ يُوعِظُ بِهِ مَنْ كَانَ يُؤْمِنُ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ وَمَنْ يَتَّقِ اللَّهَ يَجْعَلْ لَهُ مَخْرَجًا

Bas, qachonki (taloq qilingan ayollar idda) muddatiga yetsalar, bas, ularni yaxshilik bilan olib qolingiz yoki yaxshilik bilan (mahrlarini berib) ajrashingiz! Va (yarashayotgan



yoki ajralishayotganda) o'zlarinigizdan (musulmonlardan) ikki adolatli guvohni hozir qilingiz va guvohlikni Alloh uchun barkamol ado etingiz! Bu (hukm)dan faqat Allohga va oxirat kuniga imon keltiruvchi kishi o'git olur. Kimki Allohga taqvo qilsa, U unga (tashvishlardan) chiqish yo'lini (paydo) qilur (Taloq surasi, 2-oyat).

Demak, imkoni boricha oilani saqlab qolishga buyurilgan. Lekin ajrim bo'lsa, uning sabablariga ko'ra, tomonlarning majburiyatlari farqlanadi. Xususan, xotinning farzandga umumiy qarashi shariatda "الحضانة" deyiladi va majburiyat sanaladi. Ahl as-sunna val-jamoa olimlarining nazdida, **unga sarflanadigan xarajatlar erga "farzi ayn"** hisoblanadi. Shunga ko'ra, u xotinning eridagi huquqi hisoblanadi. Shuningdek, ba'zi olimlarning nazdida, uning xarajatlari jamiyatning boshqa vakillarining zimmasida "farzi kifoya" hisoblanadi. Umumiy holatda er farzandlari voyaga yetgunicha quyidagilar bilan ta'minlashi lozim bo'ladi:

- 1) vasiylik (ya'ni sobiq xotinga) va emizish uchun to'lov;
- 2) bolalar uchun umumiy ta'minot.

"Hadona" huquqiga kimlar loyiq degan masala yuzaga keladi va ular quyidagi tartibda:

- 1) bolaning onasi, ya'ni monelik bo'lmasa, farzandiga xotin vasiylik qiladi;
- 2) xotinning onasi, ya'ni agar bolaning onasi vafot etgan yoki vasiylik huquqidan mahrum qilinganda;
- 3) ota, ya'ni agar xotin va uning onasi vafot etganda;
- 4) erning onasi;
- 5) xotinning yoki erning opa-singillari, ya'ni yuqoridagi qarindoshlar bo'lmagan taqdirda;
- 6) xotinning xolasi;
- 7) erning xolasi.



Agar yuqoridagilar ham bo'lmasa, xotin tomonidan qarindoshlar va ularda ham vasiy topilmasa, keyin erning qarindoshlari zimmasiga yuklanadi. Demak, har qanday holatda bola qarovsiz qoldirilmasligi shariat talabi ekan.

Islom dinida yetimlik faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan qo'llanadi. Jumladan, ularning yetimligi uchta holatda bo'ladi:

- 1) ota-onasi vafot etgan "اللطيم", ya'ni chin yetim, deyiladi;
- 2) otasi vafot etib, onasi bilan qolgan "اليتيم" deyiladi;
- 3) onasi vafot etib, otasi bilan qolgan "العجبي" deyiladi.

Ushbu holatlar e'tiboridan vasiylikda ikki munosabat yuzaga keladi:

- 1) shaxsga g'amxo'rlik;
- 2) meros qolgan bo'lsa, uni saqlab, voyaga yetgach, ularga qaytarish.

Har qanday holatda ham shariatda ularning haq-huquqlari muhofazasi alohida ta'kidlangan. Dastlab, uning barcha ta'minoti yaqin qarindoshlar zimmasida bo'ladi. Ayni paytda o'sha jamiyatning boshqa vakillari ham yetimlarga imkoni boricha beminnat yordam berishga chaqirilgan, ularga xushmuomala bo'lish ham ta'kidlangan. Ularning ushbu beg'araz ishlariga katta ajrlar berilishi va'da qilingan. Xususan, Sahl ibn Sa'd (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda adi shunday deganlar:

عن سهل بن سعد رضي الله عنه قال: قال رسول الله صلى الله عليه وسلم: أَنَا وَكَافِلُ الْيَتِيمِ فِي الْجَنَّةِ هَكَذَا وَأَشَارَ بِالسَّبَابَةِ وَالْوُسْطَى وَفَرَّجَ بَيْنَهُمَا.

"Yetimni o'z qaramog'iga olgan kishi (qarindosh yoki begona shaxs bo'lishidan qat'i nazar) jannatda men bilan



mana shunday yonma-yon turamiz”, – deb ko’rsatkich va o’rta barmoqlari orasini ochib ko’rsatdilar.

Shuningdek, Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda ushbu holat batafsilroq bayon qilingan:

وَعَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالَ رَسُولُ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ: خَيْرُ بَيْتٍ فِي الْمُسْلِمِينَ بَيْتٌ فِيهِ يَتِيمٌ يُحْسَنُ إِلَيْهِ وَشَرُّ بَيْتٍ فِي الْمُسْلِمِينَ بَيْتٌ فِيهِ يَتِيمٌ يُسَاءُ إِلَيْهِ أَنَا وَكَافِلُ الْيَتِيمِ فِي الْجَنَّةِ كَهَاتَيْنِ يُشِيرُ بِإصْبَعَيْهِ.

Rasululloh (s.a.v.): “Musulmonlarning eng yaxshi uyi bu – yetim istiqomat qilib, unga yaxshi munosabatda bo’ladiganidir. Musulmonlarning eng yomon uyi bu – yetim istiqomat qilib, unga yomon munosabatda bo’ladiganidir. Men va yetimni kafiliga olgan kishi jannatda mana shunday bo’ladi”, – deb barmoqlari bilan ishora qildilar.

Bir jihatdan, yetimlarning moddiy ta’minoti dolzarb bo’lsa, ikkinchi tomondan, ularning jismoniy va ma’naviy tarbiyasi ham juda muhim sanaladi. Vasiylar ularga xushmuomala bo’lishga buyurilgan. Jumladan, ushbu holat Qur’oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

فَأَمَّا الْيَتِيمَ فَلَا تَقْهَرْ

“Bas, endi Siz (ham) yetimga qahr qilmang!” (Zuho surasi, 9-oyat).

Hadislarda ham yetimlarga mehrbonlik qiladiganlarga alohida ajrlar va’da qilingan.

Voyaga yetmagan bolalarga meros qolgan bo’lsa, ularning ushbu mulk huquqiga hech kim monelik qilmasligiga va ular voyaga yetgan meros to’liq berilishiga buyurilgan. Bu haqida Qur’oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:



وَأَتُوا الْيَتَامَىٰ أَمْوَالَهُمْ وَلَا تَتَبَدَّلُوا الْخَيْرَ بِالْطَّيِّبِ وَلَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَهُمْ إِلَىٰ أَمْوَالِكُمْ إِنَّهُ كَانَ حُوبًا كَبِيرًا

(Voyaga yetganlaridan keyin qo’l ostingizdagi) yetimlarga mollarini beringiz va siz uchun nopok bo’lgan (yetimlarning mollarini o’zingizning haqqingiz bo’lgan) pok narsaga almashtirib olmangiz! Va ularning mollarini o’zingizning molingizga qo’shib yemangiz! Zero, bu katta gunoh bo’lgan ishdir (Niso surasi, 2-oyat).

Yetimlarning merosi va mulkini tortib olish yoki ishlatish man qilingan. Jumladan, bu haqida Qur’oni karimda quyidagicha marhamat qilingan:

إِنَّ الَّذِينَ يَأْكُلُونَ أَمْوَالَ الْيَتَامَىٰ ظُلْمًا إِنَّمَا يَأْكُلُونَ فِي بُطُونِهِمْ نَارًا وَسَيَصْلَوْنَ سَعِيرًا

Yetimlarning mollarini zulm yo’li bilan yeydigan kimsalar hech shak-shubhasiz qorinlariga olov yegan bo’lurlar. Va, albatta, do’zaxga kirajaklar! (Niso surasi, 10-oyat)

Shariatda chin yetimlarning vasiyligi uchun yaqin qarindoshi bo’lmasa, ularning ta’minoti davlat zimmasiga tushadi. Hatto mashhur hanafiy olimlardan biri Abu Hafs Umar Nasafiy “Aqoid an-Nasafiy” risolasida yetimlarning haq-huquqlari muhofazasiga bevosita davlat rahbari mas’ulligini ta’kidlagan.



OILA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR MASALASI

Oilaning har bir shaxs hayotidagi roli, ayniqsa, farzandlar tarbiyasida muhim omil bo'lib, bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "...bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin"⁶, deb alohida urg'u beradi. Shaxsning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda **oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarda bu jarayon "Ma'naviy-madaniy hayot, ta'lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, rang-barang munosabatlar, san'at, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga tomoshalari va udumlari, millatning o'ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi ham, aslida, ana shu ma'naviy-madaniy qadriyatlar bilan o'lchanadi"⁷. Yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash haqidagi ta'limot va qarashlar sharq mumtoz mutafakkirlarining qarashlari, xalqlarning boy, an'anaviy xalq

⁶ Мирзиёев Ш.М. Оила ва жамият устуни, ҳаётимизнинг фойзи ва кўрки // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 464.
⁷ Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 119.

og'zaki ijodi, diniy manbalar, shuningdek, kundalik turmush tarzi asosida shakllangan. Xalqimizning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan ota-onani, yoshi kattani hurmat qilish tuyg'usini yosh avlod ongiga singdirish va yosh avlodni barkamol, jismonan va ruhan kuchli qilib tarbiyalash g'oyalari yoshlar ta'lim-tarbiyasida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur bilishlari – bu eng muhim va zarur qadriyat, yangi jamiyatni barpo etishning muhim shartidir. Bizning buyuk ajdodlarimiz yaratgan va bizgacha yetib kelgan ma'naviy meros bu, avvalo, eng yuksak qadriyatdir. Vaholanki, qadriyatlar barkamol inson tarbiyasiga yo'naltirilgan, shaxsning kamolotida g'oyat muhim ahamiyat kasb etuvchi vosita bo'lib, agar qadriyatlar asralib va zamonaviylashtirilib borilmasa, ular millatning tanazzuliga olib kelishi mumkin.

Yoshlarni tarbiyalashda ota-onaning o'rni, avlodlar tarbiyasida nasl-nasabning aloqadorligi, ularning ta'siri, qayta tarbiyalash, o'g'il va qizga xos alohida tarbiya berish kabi qarashlar asosiy masala bo'lib, tarbiyada oilaning o'rni yuqori baholanadi. Darhaqiqat, **farzandni komil inson qilib tarbiyalash – ota-onaning bosh farzi bo'lsa, ularni qadrlab, e'zozlash, boqish farzandlik qarzidir.** Bu qarzni hech qanday xarajat bilan, mo'l-ko'l mol-dunyo bilan o'tash mumkin emas. Ota-ona oldidagi farzni tushunish – bu yosh avlodning madaniyatligi, odamgarchiligining belgisi.

Oilada tarbiya, asosan, iqtisodiy va ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unligida qaror topadi. Shuning uchun oila infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy asoslarini madaniylashtirish, uning ma'naviy-madaniy darajasini yuksaltirish sohasida ham keng ko'lamda ijtimoiy farovonlikning uyg'unligini ta'minlash, sog'lom turmush tarzi qaror topishining negizini tashkil etadi.



Ota-onani hurmat qilish odob-axloqning va odamgarchilikning buyuk xislatidir. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi axloqiy qoidalarning hozirgi kunda yoshlar tarbiyasidagi o'rni alohida. Shuning uchun xalqimiz orasida shakllangan bunday dunyoqarash va odob-axloq bugungi kunda ham inson ma'naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oilaviy vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. Ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyanob qilib tarbiyalash lozimligi e'tirof etiladi. Farzandlarda sog'lom ijtimoiy munosabatlar dastlab oilada, ota-ona, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning bolaga ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oila o'zining qadriyatlaridan tashqari jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va ijtimoiy me'yorlarini hurmat qiladi, bola yoshligidan jamiyatda yashashga o'rganadi va ko'nikma hosil qilib boradi. **Odam bolasi uchun eng buyuk va qadrli, uni yo'qdan bor qilgan insonlar, ya'ni ota-onani e'zozlash odob-axloqning eng asosiy belgisidir. Ota-onaga hurmat ko'rsatish va ularga mehribonlik bilan qarash – har bir o'g'il-qizning asosiy vazifasi.** Binobarin, farzand ota-onani rozi qilmay turib, hech bir ishida baraka bo'lmasligini bilmog'i kerak.

Ota – buyuk inson. Alloh Odam alayhissalomni tuproqdan yaratdi. O'tkinchi foniy dunyo shundan boshlanadi. Odam alayhissalom yaratilgan kundan boshlab, Alloh bilim va ma'rifat bergan. Bilim nuri bilan u zotni farishtalardan ustuvor qilgan. Dunyoviy hayotini amallarga sarflaydi. Oxiratini obod qilishga



urinadi, insoniyatni bunday amallarga o'rgatgan **ilk muallim bu – ota. Shuning uchun xalqimiz ota roziligi xudo roziligi ekanligini nasihat qiladi. Ota tarbiyasini, nasihatini olgan aqlli farzand yomon ish qilmaydi va yomonlikdan qochadi. Hech kimga xiyonat qilmaydigan odam ota tarbiyasini ko'rgan mo'min odamdir.** Otaga ozor beruvchiga Yaratgan ham shafqat qilmaydi. Ota roziligi Uning, Yaratganning roziligi hisoblanadi.

Sharq xalqlarida onalarni qadrlash milliy mentalitet darajasiga ko'tarilgan, ularni hurmat qilish, qadrlash milliy qadriyat bo'lib, bu axloqiy fazilat har bir farzandga yoshligidan oilada singdirilib boriladi. Onalar o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan va kundalik turmush uchun zarur bo'lgan barcha urf-odat va an'analarni yoshlarga muntazam o'rgatib boradilar. Farzand onadan ibrat olib, hayotda o'zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. Ularda onasi tufayli hayotga bo'lgan muhabbat, bunyodkorlik tuyg'usi shakllanadi. Onalar farzandlarga sirdosh, suyanchiq, ustoz, dardkash bo'lishi ma'naviyatimizdagi asosiy mavjud bo'lgan haqiqatdir. Ularning hayot tajribasi, mehr-muhabbati, aql-farosati yoshlardagi kuch-g'ayratni, tashabbuskorlikni to'g'ri yo'lga solishga, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikka qaratiladi. Farzand tug'ilganidan keyin, u, birinchi navbatda, onaning mehri bilan tarbiyalanadi, ulg'ayib, kamolga yetadi.

Ma'rifatparvar jadidlarning ayollarning jamiyatda tutgan o'rni borasidagi ilg'or fikrlari o'sha paytdagi davriy nashrlarda e'lon qilingan. Abdusalom Azimiyning "Ta'lim va tarbiya" maqolasida: "Bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onaning ta'siri bolaga otaning ta'siridan ziyodadir"⁸, deyiladi. Millat

⁸ Mustafayeva N.A. Ma'rifatli ayol – millat tarbiyachisi // Milliy qadriyat va urf-odatlarini saqlashda ayollarning o'rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 2018. – B.267.



taqdiri oilada ayollarning o'z farzandlariga berayotgan tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bunga faqatgina o'qimishli, oqila, ma'rifatparvar ayollar ko'magida erishish mumkin. Ushbu mavzu o'z davrida dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu borada tadqiqot olib borgan N.A.Mustafayevaning ta'kidlashicha, o'sha paytda "Sadoyi Turkiston" gazetasida chop etilgan "O'qinglar, onalar", "Hamshiralar tilidan" kabi maqola va she'rlarda Turkiston ayollarning "mute' joriya"larga aylanib qolgani, ularning ma'rifatli bo'lishiga qarshi chiqishlarga chek qo'yish zarurati uqtirilgan va bu qizg'in munozaralarni keltirib chiqargan. Abdulla Avloniy ayollarni ilm olishga, hunar o'rganishga targ'ib qilib yozgan asarlarida "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur?" kabi savollarni qo'yar ekan, "Bu ona vazifasidir", – deydi. Avloniy yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan onalarning o'zlari ilmli, ma'rifatli bo'lishi shartligini ko'rsatadi, "Ma'suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg'a oshiqingiz", – deydi. "Na uchun ibrat olmaymiz?" maqolasida qizlarga zeb-ziyat emas, balki ilm, hunar o'g'il bolalarga qaraganda ham ko'proq kerakligi uqtiriladi, buning sababi ayollar millat tarbiyachisi ekanida deb ko'rsatiladi. Jadid ma'rifatparvarlari jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanishi jarayonida ayollarning rolini oshirishni targ'ib qilar ekanlar, ma'rifat tarqatish va asrlar davomida qotib qolgan diniy xurofot va bid'atdan voz kechish ayollar erkinligini ta'minlashning yagona yo'li ekanini ta'kidlaganlar.

Tarbiya tizimi jamiyatda komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Komillikka erishish uchun nafsni jilovlay olish, nafs balosiga giriftor bo'lishdan o'zini saqlash, o'z ehtiyojlarini sog'lom yo'llar bilan qondirishga odatlanish eng muhim vazifa hisoblanadi. "Tarbiya ko'rmagan – past saviyadagi nafs yomonlikka moyil va shahvatga ko'p rag'batlidir: yemoq, ichmoq,



uxlamoq, aysh-u ishrat qilmoq, kayf-u safoga berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo'ravonlik qilmoq va hokazolarni istaydi"⁹.

Biz oilada tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, tarbiya mohiyatini faqat bolalar tarbiyasi bilan cheklab qololmaymiz. Kattalarga ta'sir qilish, ularni yangicha fikrlashga o'rgatish, ularning ongidagi qusurlarni yo'qotish borasidagi barcha xatti-harakatlar ham sog'lom tarbiya berish doirasiga kiradi.

Farzandlarga ta'lim tarbiya berishda ota-onani birdek mas'ul bo'lib, ular o'z zurriyotlariga ota-onani, o'zidan katta va kichikni qadrlash, ularning hurmatini joyiga qo'yish, kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili asosida burch va majburiyatlarni singdirish, yigit kishining muqaddas majburiyatlaridan biri ota-onani hurmat qilish ekanligini, ota-onaga xizmat qilish – xalqqa xizmat qilish bilan barobar bo'lishini o'rgatib, tushuntirib, hayotda o'z o'rnini topishda yo'l ko'rsatish, aksincha, o'z ota-onasining nasihatini olmay, ularni hurmat qilmagan farzand o'zining odobsizligi bilan otasining boshini egishini asoslashni talab qiladi. Chunki aqli raso, ilmli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onasining, balki butun jamiyatning, insoniyatning eng katta boyligidir.

Yoshlar tarbiyasidagi nasl-nasab masalasiga ham diqqat-e'tiborini qaratish, shuningdek, yoshlarda ba'zi qobiliyatlarning shakllanishida asosiy belgilardan biri ular yashayotgan muhit, tarbiya va nasliy munosabatlarning ma'lum darajada ta'siri mavjudligidadir. Xulq-atvori yomon, zolim kishilardan tug'ilgan o'g'il-qizlar zolim bo'lib tug'ilmasdan, tarbiya natijasida aqli bo'lib voyaga yetishini mumkin bo'lganidek, yaxshi inson va oilalar

⁹ Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Т.: Чўлпон, 1998. – Б. 14.



taqdiri oilada ayollarning o'z farzandlariga berayotgan tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bunga faqatgina o'qimishli, oqila, ma'rifatparvar ayollar ko'magida erishish mumkin. Ushbu mavzu o'z davrida dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu borada tadqiqot olib borgan N.A.Mustafayevaning ta'kidlashicha, o'sha paytda "Sadoyi Turkiston" gazetasida chop etilgan "O'qinglar, onalar", "Hamshiralar tilidan" kabi maqola va she'rlarda Turkiston ayollarning "mute' joriya"larga aylanib qolgani, ularning ma'rifatli bo'lishiga qarshi chiqishlarga chek qo'yish zarurati uqtirilgan va bu qizg'in munozaralarni keltirib chiqargan. Abdulla Avloniy ayollarni ilm olishga, hunar o'rganishga targ'ib qilib yozgan asarlarida "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur?" kabi savollarni qo'yar ekan, "Bu ona vazifasidir", - deydi. Avloniy yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan onalarning o'zlari ilmi, ma'rifatli bo'lishi shartligini ko'rsatadi, "Ma'suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg'a oshiqingiz", - deydi. "Na uchun ibrat olmaymiz?" maqolasida qizlarga zeb-ziynat emas, balki ilm, hunar o'g'il bolalarga qaraganda ham ko'proq kerakligi uqtiriladi. buning sababi ayollar millat tarbiyachisi ekanida deb ko'rsatiladi. Jadid ma'rifatparvarlari jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanishi jarayonida ayollarning rolini oshirishni targ'ib qilar ekanlar, ma'rifat tarqatish va asrlar davomida qotib qolgan diniy xurofot va bid'atdan voz kechish ayollar erkinligini ta'minlashning yagona yo'li ekanini ta'kidlaganlar.

Tarbiya tizimi jamiyatda komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Komillikka erishish uchun nafsni jilovlay olish, nafs balosiga giriftor bo'lishdan o'zini saqlash, o'z ehtiyojlarini sog'lom yo'llar bilan qondirishga odatlanish eng muhim vazifa hisoblanadi. "Tarbiya ko'rmagan - past saviyadagi nafs yomonlikka moyil va shahvatga ko'p rag'batlidir: yemoq, ichmoq,



uxlamoq, aysh-u ishrat qilmoq, kayf-u safoga berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo'ravonlik qilmoq va hokazolarni istaydi"⁹.

Biz oilada tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, tarbiya mohiyatini faqat bolalar tarbiyasi bilan cheklab qololmaymiz. Kattalarga ta'sir qilish, ularni yangicha fikrlashga o'rgatish, ularning ongidagi qusurlarni yo'qotish borasidagi barcha xatti-harakatlar ham sog'lom tarbiya berish doirasiga kiradi.

Farzandlarga ta'lim tarbiya berishda ota-ona birdek mas'ul bo'lib, ular o'z zurriyotlariga ota-onani, o'zidan katta va kichikni qadrlash, ularning hurmatini joyiga qo'yish, kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili asosida burch va majburiyatlarni singdirish, yigit kishining muqaddas majburiyatlaridan biri ota-onani hurmat qilish ekanligini, ota-onaga xizmat qilish - xalqqa xizmat qilish bilan barobar bo'lishini o'rgatib, tushuntirib, hayotda o'z o'rnini topishda yo'l ko'rsatish, aksincha, o'z ota-onasining nasihatini olmay, ularni hurmat qilmagan farzand o'zining odobsizligi bilan otasining boshini egishini asoslashni talab qiladi. Chunki aqli raso, ilmi, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onasining, balki butun jamiyatning, insoniyatning eng katta boyligidir.

Yoshlar tarbiyasidagi nasl-nasab masalasiga ham diqqat-e'tiborini qaratish, shuningdek, yoshlarda ba'zi qobiliyatlarning shakllanishida asosiy belgilardan biri ular yashayotgan muhit, tarbiya va nasliy munosabatlarning ma'lum darajada ta'siri mavjudligidadir. Xulq-atvori yomon, zolim kishilardan tug'ilgan o'g'il-qizlar zolim bo'lib tug'ilmasdan, tarbiya natijasida aqli bo'lib voyaga yetishini mumkin bo'lganidek, yaxshi inson va oilalar

⁹ Тасаввуф ва нафс тарбияси. - Т.: Чўлпон, 1998. - Б. 14.



farzandlari bee'tibor, nazoratsiz qolib, tarbiyasida qusurlar bo'lishi ham mumkin. Demak, yoshlarning yaxshi odam bo'lib voyaga yetishida farzand tarbiyasida to'g'ri yo'nalish berish zarurligi va shu orqali tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Shuning uchun farzand tarbiyasida ma'lum bir etnomadaniy jarayon makonga, millatga taalluqli obyekt ekanini ko'rsatadi.

Bugun jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ayollar sabab bo'layotgan yaratuvchanlik va yangilanishlar ortib bormoqda. Shu bilan birga, u yuksak minbarlarda turib, dunyo afkor ommasini tinchlikni saqlashga chorlayotgan siyosatchi, uzoqni ko'ra oladigan, yetti o'lchab bir kesuvchi tadbirkor, insoniyat taqdirini hal etishga qodir, o'tkir aql-idrok egalarini dunyoga keltirayotgan mehribon va mushtipar onadir.

Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarida teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda. Bu sa'y-harakatlar ayollarning jamiyat hayotida faolligi orqali o'z ifodasini topmoqda.

Yurtimiz ravnaqi, farzandlarimizning bilimli, har jihatdan barkamol bo'lib ulg'ayishida, jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy yuksalishida ayollarimizning hissasi kattadir. Bu borada yurtimizning ma'rifatparvarlaridan bo'lgan Abdulla Avloniyning oila pedagogikasi va psixologik fikrlari ham diqqatga sazovordir. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida oila muhitidagi bola tarbiyasi va umuman, oilaning ijtimoiy roli ochib berilgan. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ta'sir kuchiga ega ekanligi hamda insonning hurfikrli bo'lishida oila, oilaviy tarbiyaning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Oilada



bolaga ilk yoshdan boshlab odob va axloqqa oid tarbiya berish lozimligini tushuntirgan: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq kerak, zehnimizni esa ravshanlantirmoq lozim". Abdulla Avloniy ta'kidlashicha, bolaning sog'lom va zehnlari tarbiyalanishida dastlab oila va ota-onalar asosiy tarbiya kuchi hisoblanishadi. Bolaning har tomonlama barkamol bo'lishida dastlab oilada ota-onalar murojaat qiladi va ulardan shaxsiy namuna oladi.

"Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqar...". Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi darajaga qo'yadi. "Tarbiyani kim qilur? Qanday qilinur?" degan savol keladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – ona vazifasidir. Ikkinchisi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, degan javob bersak". Ko'rinib turibdiki, Abdulla Avloniy bolaning mukammal tarbiyasida oila va ota-onani alohida ko'rsatish bilan birga maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog'liqligini e'tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Darhaqiqat, oilada farzandga berilayotgan tarbiya uning kelgusida kim bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Oilada farzand yo'komil shaxs, yo xudbin inson bo'lib shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bugungi kunda ham bu hikmatli so'zlarning ahamiyati o'z kuchini yo'qotmaganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida farzandlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularda yon-atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'usini yuksaltirish, tinch-oso'yishta hayotimizga, ko'p asrlik ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga



qarshi kurashishda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bunda esa avvalo, onalarimizning o'rne va ular tarbiyasi asosiy o'rinni egallaydi. Zero, bizning ayollarimiz qanchadan qancha dunyoga mashhur olim-u ulamolar va mutafakkirlarni ulg'aytirgan. Buyuk onalar farzand tarbiyasini hamma narsadan ustun qo'ygan. Bizning o'zbek ayollari boshqa xalqlarning ayollaridan ko'ra bu vazifaga mas'uliyat bilan yondashadilar, desak, adashmagan bo'lamiz. Bu borada XIX asrning 70-yillarida Fransiya etnograf olimi, musavvir Burdon xonim Turkiston xalqlari o'rtasida olib borgan tadqiqotlaridan so'ng fikrlarini bayon etadi. O'rta Osiyo xalqlarining hayot tarzi bilan tanishish jarayonida ayollarning odobi, bolalarga munosabati va er-xotin munosabatlarining guvohi bo'lgani, o'zbek ayolining o'z uyida, to'y-marosimlarida, qo'ni-qo'shnilar bilan muloqotda o'zini tutishi, axloq-odobi, sharm-hayosi uni hayratda qoldirganini alohida ta'kidlaydi. "Biz, – deb yozgan edi u, – madaniylashgan Yevropa ayollari axloq-odobni, iffatni turkistonlik ayollardan o'rganmog'imiz joiz ekan. Lesgaft, Didro nazariyalaridan mutlaqo bexabar bu ayollar axloq nazariyasidan qo'llanma yozsalar arzir ekan".

Odobi, tarbiyasi e'tirof etilgan onalarimiz izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim va hatto harbiy sohalarda, nainki, barcha jabhada xizmatlari beqiyos ekanligi barchamizga ayondir. Yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatda mavqeyini yanada yuksaltirish, huquqlarini har tomonlama himoya qilish, jamiyatda o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, shart-sharoitlar yaratish masalasi doimiy diqqat-e'tiborda bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko'ra, ayollar quyidagi ijtimoiy ta'tillarni olish huquqiga egadirlar: homiladorlik



va tug'ish, ularni rivojlantirish, o'qish bilan bog'liq ta'tillar. Bulardan tashqari, ayollar uchun mamlakatimiz tomonidan qator imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar xotin-qizlarimizni turli sohalarda faoliyat olib borishlariga keng imkoniyat yaratmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF Bolalar tashkilotining tadqiqotiga ko'ra, insonning yetti yoshgacha bo'lgan davri shunday davrki, bu davrda bolaning kelgusida qanday xislatlari paydo bo'lishini belgilab, axloqiy xarakterining asoslari yuzaga kelishini ta'kidlashgan. Bunda bolaning jismoniy va ruhiy holati mehrga tashna bo'lib, doimiy ota-ona ko'magiga ehtiyoj sezishadi. Agar ota-ona tomonidan bolaning jismoniy va ruhiy holati talab qilgan hissiyotga javob bera olmasa, mehri yetarli bo'lmasa, farzand umri davomida agressiv, jamiyatga, ota-onaga nafrat bilan yashaydi.

Sharqona tarbiya insonning butun umri davomida o'rganishini talab qiladi. Masalan, go'dakni ota-onasi, o'quvchi yoki talabani ustozlari, er-xotin bir-birini, bobo-yu momolar nabiralari va aksincha, nevaralari ularni tarbiya qiladi. Insonni "odamlar ko'zi" ham tarbiyalashi mumkin. Tarbiya qanchalik uzoq davom etsa va qanchalik milliy qadriyatlarga, azaliy urf-odatlariga mos bo'lsa, shunchalik natijador, insoniy bo'ladi, aksincha bo'lsa, vayronkor tarbiya bo'lib, tarbiyalanuvchini adashtiradi. Demak, yaxshilikning, ezgulikning ustozlari bo'lganidek, yomonlikning, vayronkorlikning ham tarbiyachisi bor.

Biz bolalarimiz xulq-atvoriga o'zimiz bilmagan holda yomonlik illatlarining urug'ini ekib, ularga aziyat yetkazamiz. E'tiborsiz qolgan farzandlarimizni vayronkor g'oyalar o'z domiga tortadi va g'arazli maqsadi yo'lida ulardan qurol sifatida foydalanadi. Bundan farzandimiz, oila, jamiyat ma'naviy zarar ko'radi.



Tan olish kerak: bugun ko'p oilada bolalarning vaqti aniq rejalashtirilmagan. Ular kech uxlaydi. Tongda javrash va o'shqirish orqali uyg'onadi, natijada uyquga to'ymagan o'smirning kuni asabiy boshlanadi. Kun bo'yi bola ota-onasi va hayot haqida yomon xayollar va tushkunlik qurshovida yashaydi. Mana shunday paytlarda asosiy tarbiyachi bo'lgan onalarning o'rni va shirin so'zi bolaga madad bo'ladi.

Nima qilmoq kerak? Buning uchun biz yoshlar ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatayotgan va ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan illatlarni aniqlab, ularda shu illatlarga qarshi tura oladigan fazilatlarni shakllantirishimiz zarur. Insonlar orasida keng tarqalayotgan mantiqsiz va zararli urf-odatlarini yo'q qilib, ularning o'rniga zamonaviy milliy madaniyatimizni targ'ib qilishimiz lozim.

Ma'naviy tarbiyada nasihatgo'ylikdan ko'ra, bugungi kun talab qilayotgan ilmiy tarbiya yo'llarini egallashimiz zamon talabidir. Bundan tashqari, bugungi kunda yoshlar orasida avj olib borayotgan salbiy odatlarni aniqlab, milliy odatimiz aslida qanday bo'lishi lozimligini uqtirishimiz zarur. Qisqa qilib aytganda, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishimiz lozim.

Ayollarimiz tashkilotlarda faoliyat olib borish bilan birga oilasi, farzandlarining ta'lim-tarbiyasi bilan ham to'liq shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish kerak. Qadriyatlarimizga ko'ra, oila boshlig'i bo'lgan erkakni ayol ayoldek kutib olishi va kechki ovqatni bir dasturxon atrofida jamlanishi ham ayolga quvonch bag'ishlaydi. Bu esa farzandlarga namuna va ma'naviy tarbiya hamdir. Xalqimiz ayollarini "uy bekasi", "xonadon farishtasi" deb ulug'lashi ham bejiz emas. Shuningdek, barcha davlat tashkilotlari xodimlariga maktabdagi ota-onalar majlisiga borishi uchun sharoit yaratib berilishi lozim. Ya'ni xodim farzandining ota-onalar majlisi uchun



ruxsat berishi bilan oiladagi ma'naviy tarbiyaga o'z hissasini qo'shadi.

Mana shunday fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini *yuksaltirish*, ularning intilish va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitini oshirish bu ayollarimizni e'zozlash bilan birga kelajak avlodni barkamol etib voyaga yetkazish uchun qilingan buyuk ishlardan biri bo'ladi. Bu muhim vazifaga davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'z loyihalari orqali ayollarimizning turmush tarziga yengillik kiritishga hissasini qo'shib kelmoqda. Zero, ayollar ma'naviyat, go'zallik, nafosat, ezgulik, mehr-muhabbat tarqatuvchi, oila va jamiyatda barqarorlikning munosib himoyachisi hamda charog'bonidir.

Bu juda ham chuqur masala, ya'ni ko'p vektorli va faktorlarni o'z ichiga olgan millat mafkurasi bilan bog'liq masala. Shunga qaramasdan, bizningcha, to'g'ri deb hisoblangan ayrim qirralariga to'xtalib o'tsak. Bizda shakl bilan bog'liq hech qanday muammo yo'q, ba'zilar aytganidek, darsliklarni o'zgartiraverish, adabiyotlarni yangilashga qarshiman, ma'naviyat darsliklaridan mafkurani chiniqtiradigan hamma narsani topish mumkin (tariximiz, jadidlar, milliy urf-odatlarimiz, an'analar va bobolar merosi). Hamma gap yoshlarning uni qabul qilishni istamayotganida. Bu juda yomon. Sababi ular yashayotgan dunyo, ko'rayotgan media o'qiyotganining aksiga targ'ib etmoqda. Nima demoqchimiz, targ'ibot usullari eskirdi, bugun dunyo kiber va media olam ta'siri ostiga tushib bo'lgan.

Nima qilmoq kerak? Media ta'sir bilan xuddi ulardek kurashish kerak, qancha javonmardlik, poklik, halollikni



kitoblarda, darsliklarda o'rgatmang, televizorda, internetda, seriallarda ular har kuni ko'rayotgan xiyonat, uyatsizlik va cho'rtkesarlik oqibatida odatiy holga aylanganini ko'rarkanlar, kitoblar singdirgan g'oyalar puchga chiqaveradi. Yechimlardan biri jamiyat ongidagi qahramonlarni o'zgartirish, televideniye ham aslida aktyor, tik-toker, qimorbozlarni o'rnak qilavermasdan, oliyjanob obrazlarni, halol-u pok qahramonlar qiyofasini yaratish, intellekt yaratuvchilarni jamiyatga o'rnak qilishi kerak. Yaxshini ko'rsatamizmi yo yomonni? Sayozlikdan qochmoq lozim. Seriallarda boy odamlar hayoti emas, hadeb jamiyatdagi sharmanda hissiyotlarni emas, zinama-zina buyuklikka erishgan, bu yo'lda yo'qotishlarga tayyor bo'lgan odamlar hayotini ko'rsatishi, eng oddiy odamlar hayotidagi murakkab, ammo ezgu hissiyotlar haqida filmlar yaratilishi zarur va bu yoshlar qalbini to'lqinlantira olishi kerak.

Oila instituti juda muhim omil. Bola ongi 70 foiz oila dunyoqarashida shakllanadi. Ota-onalarda kitob o'qishga fursat yo'q, demakki, ularni jamiyat motivlarini boshqarish orqali tarbiya qilmoq kerak, ya'ni jamiyat qahramonlarini o'zgartirish lozim. Bundan tashqari, odamlarga haqiqatni ko'rsatar ekansiz, uning oqibatlariga ham javob bermoq lozimligini davlat anglamog'i zarur. Odamlar ko'z o'ngida hokimiyatlar, vazirliklar milliardlab mablag' o'margani aytilmoqda, ammo xalq ularning qilmishlari uchun javobgarligini va jazoga tortilganini bilmayapti ham, ko'rmayapti ham. Bu teskari rezonans berishi va millatning mafkuraga, g'oyaga ishonchini o'ldirib qo'yishi mumkin. Aytmoqchi bo'lganimiz, darsliklardagi ezgu g'oyalarni televideniye, media kontentga ko'chirib o'tkazish vaqti keldi, ziyoli va aqlli odamlar oddiy odamlar ko'z o'ngida juda abgor holatda yashamasliklari kerak



va buni to'g'rilash vaqti keldi. Shunda ular ergashtiruvchilarga (nafaqat yoshlarni, balki ularning ota-onalarini ham) aylanadilar.

Va nihoyat, katta-sarf xarajat va bosimni xohlamaysizmi, unda din ma'rifati bilan millatni mafkuraga boshlang! Islomning boshlang'ich asoslarini darsliklarga kiriting, buyuk sahobalar hayotidan rivoyatlar qo'shing, agar kadr yetishmasa, maxsus kurslar asosida boshlanishiga haftada bir marta bolalarga hurmat, birdamlik, adolat prinsiplarini singdiring. Yoxud kadrlar tarkibi va mahorati oshirib borilaversa, yaqin istiqbolda muayyan tarkib kadrlar tayyor bo'ladi. Ammo bularning barchasi mutlaq davlat nazorati ostida bajarilmog'i lozim bo'ladi. Ya'niki bir millat o'z mazhabi, ota-bobolar ergashgan ulamolari, dini tarixi va undagi asosiy shaxslar haqida eng boshlang'ich tushunchalarni bilib olmog'i zarur, chunki bu g'oya atrofida birlashishga katta yordam beradi. Va bu kibermakonda g'alamis va radikal oqim hamda g'oyalarga qarshi muayyan immunitetni yaratib beradi.



RASMIY NIKOH (FHDI) – QAT'IIY QOIDA, RASMIY SHAR'IIY NIKOH – AXLOQ QOIDASI, MILLIIY URF-ODAT SIFATIDA

Mamlakatimiz sharoitida fuqarolar oila qurishayotganda dunyoviy nikoh (FHDI)dan o'tib, islomiy nikohni ham amalga oshirishlari milliy urf-odatga aylanganiga ham ancha vaqt bo'ldi. Hatto "kurashuvchan ateizm" hukmronlik qilgan vaqtda ham o'zbeklar o'z farzandlarni islomiy nikohsiz uylantirmaganlar, turmushga bermaganlar. Islom dinida oila va uning barqarorligi muhim hisoblanadi. Ammo keyingi paytda diniy mazmundagi muqaddas nikohni amalga oshirishda ba'zi xatoliklar uchray boshladi. Avvalambor, diniy nikohni kim o'qishi masalasi kun tartibiga chiqdi. Zero, bu sunnat amal diniy soha mutaxassisi tomonidan o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi hech kimga sir emas. Biroq diniy ilmga ega bo'lmagan kishilar ham nikoh o'qiy olishga da'vogarlik qilishlari kuzatilmoqda.


2023-yilning iyul-oktyabr oylarida jamiyat muhitida qonuniy nikohsiz yashash va norasmiy shar'iy (diniy) nikohning oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida amalga oshirilgan loyiha doirasida oila va uning barqarorligining asosi hisoblangan sunnat amal bo'lmish diniy (shar'iy) nikoh kim tomonidan o'qilishiga oid masalaga oydinlik kiritish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

Sotsiologik so'rov 2023- yilning avgust-sentyabr oylarida mamlakatimizning quyidagi hududlari: Toshkent shahri, Buxoro,



Xorazm, Andijon, Farg'ona, Namangan va Qashqadaryo viloyatlari aholisining turli ijtimoiy qatlamlari orasida o'tkazildi.

So'rovnomada "Farzandlarni oilalik qilayotganingizda islomiy nikoh imom-xatib yoki uning muovini tomonidan o'qilishi kerakmi?" qabilidagi savolni ishlab chiqib, uni respondentlar hukmiga havola qildik. Olingan natijalar, umumiy jihatda, jinslar o'rtasida va hududlar bo'yicha tahlil qilindi.



2-rasm. Islomiy nikohni imom-xatib yoki uning muovini tomonidan o'qilishiga munosabat

Natijalardan ma'lum bo'lmoqdaki, ko'pchilik respondentlar islomiy nikoh professional diniy ilmga ega bo'lgan diniy soha mutaxassisi imom-xatib yoki uning muovini tomonidan o'qilishi kerak, degan munosabatni bildirishdi. Shuningdek, har respondentdan deyarli uchasi islomiy nikohni qonunchilikda faqat diniy soha mutaxassisi o'qishi shart qilib qo'yilgani amal qilish lozim, deb qat'iy tarzda ta'kidlashdi. Respondentlarning 5,5 foizi esa nikoh o'qishni biladigan har qanday ilmiy shaxs o'qisa bo'laveradi, degan munosabatni bildirishsa, 4,3 foizi javob berishga qiynalishini ko'rsatib o'tgan.



So'rovnomada ishtirok etganlar 9,8 foiz kamchilikni tashkil etsa-da, hozirgi kunda jamiyat muhitida yuzaga kelayotgan notinch, nosog'lom oilalar, oilaning funksiyalarini bajarishga qodir bo'lmagan, o'z majburiyat va mas'ulligini his qilmaydigan shaxslar ittifoqini yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aksariyat bu toifa norasmiy nikohga kiruvchilar na dunyoviy nikohning, na diniy nikohning talab va qoidalarini to'laqonli bajarmasdan kelmoqdalar. Oz bo'lsa-da, jamiyatimizda bu kabi yondashuvning borligi nikohning asl maqsadi va vazifalarini noto'g'ri tushunishga, norasmiy shar'iy nikohlarning ko'payishiga, ijtimoiy muhitda ajrimlarning ko'payishi va tirik yetimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Vaholonki, dinimizda bitta oila barbod bo'lsa, arsh titraydi deb qayd etilgan.

Darhaqiqat, din oila qurish va uni asrashga buyuradi. Jumladan, Ali (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda bu holat alohida ta'kidlangan:

عن علي عن النبي صلى الله عليه وسلم قال: تَزَوَّجُوا وَلَا تُطَلِّقُوا، فَإِنَّ الطَّلَاقَ يَهْتَرُ مِنْهُ الْعَرْشُ.

Nabiy (s.a.v.) dedilar: Uylaninglar, taloq qilmanglar. Chunki taloqdan Arsh larzaga keladi.

Demak, bu toifaning, hattoki bir foizi ham siz-u bizni ogohlikka, hushyorlikka chaqirmog'i darkor. Jinslar kesimida esa erkaklar bunday nikohga o'z ijobiy bahosini bergani ajablanarli emas. Zero, ular bunday nikohdan zarar ko'rmaydilar, aksincha, islomda bunday nikoh uchun qo'yilgan talablarga javob bera olmasalar ham o'z mayishatlarini amalga oshirib yurganlaridan xursandlar, xolos. 64,2 % ayol respondentning poligamik nikohga salbiy munosabatlari esa ular bunday nikohga aloqalari bo'lsa-da, undan mumnun emasliklariga qat'iy ishoradir. Joylarda xotin-



qizlar masalasi bilan shug'ullanadigan jamoat tashkilotlarining mazkur kogorta a'zolari bilan yanada intensiv ishlashi tavsiya etiladi. Respondentlarining aksariyati salbiy bahosining asosi sifatida poligamik nikoh oilaviy muhitni buzadi. Zero, ayrim erkaklardagi bunday nikohga moyillik voyaga yetayotgan o'g'il farzandalar uchun keyinchalik salbiy ma'nodagi taqlidni paydo qilishi mumkin. Shuning uchun bunday turkumdagi otalar farzandlarining kelajagi uchun ham bunday nikohga kirishmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Faxsh yoki turli buzuqliklarni targ'ib qilmaydigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan seriallarimiz orqali shunday ayanchli taqdir egalarini badiiy obrazlar talqinida yoritib borish muhim ma'no kasb etadi. "Beshta barmoq barobar emas" qabilidagi dono mulohazaga asoslanib, ta'kidlash lozimki, ayrim erkaklar, shuningdek, ayollar ham ko'pnikohlik hodisasini yoqlab, munosabat bildirganlari tadqiqot davomida kuzatildi. Ijobiy munosabat bildirganlar "poligamiya yolg'iz yashayotgan ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf qilishga ko'makdosh bo'ladi", degan fikrga alohida urg'u berdilar. Ammo poligamik nikohga kirishga ayollarning ishonchini suiiste'mol qilayotgan erkaklarning soni kam emas. Bu holatni joylarda so'rovni o'tkazgan intervyur sifatida yaqqol kuzatdik. Jinslar kesimida esa poligamik nikoh a'zolari bo'lmish ayol respondentlar bunday nikohdan ko'proq pozitivlik izlashga intildilar.

Ma'lumki, hech bir muammo bo'm-bo'sh yerda vujudga kelmaydi. Shu nuqtayi nazardan jamiyatimizda uchrayotgan poligamik nikoh paydo bo'lishi turli-tuman sabablar ta'sirida kechmoqda.

Tadqiqotda ishtirok etgan barcha respondentlarning har beshtasidan biri bunday sabablardan asosiy sifati:



1. Yolg'iz ayollarning og'ir iqtisodiy ahvoli.

2. Ayrim erkaklarning boshqa ayolni ikkinchi xotin sifatida nikohiga olishni savob amali deb tushunishini ko'rsatdi. Bunda birinchi sababni tushunishimiz mumkin, haqiqatan ham, turmush o'rtog'i bo'lmagan ayollarga juda qiyin. Ammo ikkinchi sabab shubhadan xoli emas bo'lib ko'rinyapti. Ijtimoiy hayotda ko'pnikohlikka ega erkaklarda xudbinlik kayfiyati sezilmoqda. Ularning aksariyati o'zlaridan ancha yosh, kelishgan ayollarni ikkinchi xotin qilib, nikohlab olganlar. Yoshi kattaroq, o'ziga uncha qaramagan ayollardan esa uzoqroq yurishga harakat qilgan. Demak, bu yerda poligamiyaning savob uchun omili samimiy tarzda namoyon bo'lmayapti-ku, degan fikrni keng jamoatchilikka yetkazish zarur. Jamiyat a'zolarining aksariyati poligamik nikohni tanqid qilayotgan sharoitlarda uning ko'lamini kamaytirish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi kerak degan savol kun tartibiga qo'yilmoqda. So'rovda ishtirok etgan vatandoshlar ham o'z mulohazalarini ilgari surishga intildilar. Jumladan, ***Qur'oni karimda ko'pnikohlikka qo'yiladigan talablar juda qat'iyligi va unga har kim ham amal qila olmasligini kishilarga tushuntirish lozim hamda diniy soha mutaxassislariga oilali kishilarga ikkinchi oilani barpo qilishlari uchun nikoh o'qish qonunchilikda taqiqlanganini doimo eslatib turish lozim***, degan javoblar bu savol bo'yicha dominantlik qildi. Demak, respondentlar fikricha, ***jazo yo'li bilan emas, balki ma'naviy-ma'rifiy yondashuv asosida bu holatga qarshi sermahsul kurashish mumkin bo'ladi***.

Yana bir achinarli holat bu ***jamiyatimiz hayotida poligamik nikoh bilan yonma-yon tarzda ham dunyoviy, ham islomiy nikohsiz oila qurish holatlari ham uchrab turibdi. Agar dunyoviy nikoh FHDY tomonidan amalga oshirilmayotganini***



inobatga olsak, bu, birinchidan, oilaning huquqiy maqomga erishishiga to'siq bo'layotgan bo'lsa, ikkinchidan, oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy ko'mak ko'rsatish mexanizmining ishlashiga xalaqit qilmoqda. To'g'ri, mamlakatimiz qonunlariga muvofiq, diniy nikoh ixtiyoriy shaklga ega. Ammo o'zini islom diniga taalluqli hisoblaydiganlar uni muhim sunnat amali sifatida qabul qiladilar.

Respondentlar benikoh oila qurish bo'yicha uchta eng muhim munosabatlarini ko'rsatib berdilar:

- 1. Benikoh tug'iladigan farzandlar soni ko'payadi va bu xosiyatli emas.***
- 2. Bu holat milliyligimizni saqlashga jiddiy tahdid soladi.***
- 3. Biz dunyoviy davlatda yashayapmiz, shuning uchun boshqalarga o'z e'tiqodimiz va dunyoqarashimizni singdirishga sira haqqimiz yo'q.***

Birinchi va ikkinchi javoblar faol fuqarolik pozitsiyasini ifoda etsa, uchinchi javobni berganlar esa "beparvolar" guruhini tashkil etishdi. Qizig'i shundaki, bu "beparvolar" o'z farzandlarini ham shunday islomiy nikohsiz oila qurishiga rozi bo'larmikinlar degan savolni ko'ndalang qo'yishga barcha asoslar mavjud.

Tadqiqotimiz davomida respondentlardan FHDYdan o'tmasdan, islomiy nikoh o'qitmasdan er-xotin bo'lib yashash holati qaysi hududlarda ko'proq uchrashishini so'raganimizda ularning deyarli yarmiga yaqini "bu holat mamlakatimizning barcha mintaqalariga xos", deb e'tirof etishdi. Shuningdek, har to'rt respondentdan biri "bu faqat poytaxt aholisiga taalluqli muammo" deb javob bergan bo'lsa, so'rovda ishtirok etgan har uch kishidan biri mazkur masala bo'yicha javob berishga qiynalishini ma'lum qildi. Bu holat tabiiydir, albatta. Zero, muammo bo'yicha rasmiy statistikasi tuzishning hozircha to'liq imkoniyati yo'q.



Ammo ish faoliyati uchun norasmiy statistik bazani yaratish davr talabidir.

FHDYdan o'tmasdan, islomiy nikoh o'qitmasdan er-xotin bo'lib yashash qanday oqibatlariga olib kelishi bo'yicha ham respondentlar o'z shaxsiy munosabatlarini bildirdilar. Har uch respondent uchun ikkita muhim salbiy oqibat sifatida: **"Bunday oila barbod bo'lganda umumiy mulkni taqsimlashga huquqiy asos topilmayapti"**, **"Bolalar voyaga yetib, esini taniganda otanasiga nisbatan mehr ko'rsatish zaiflashyapti"** qabilidagi javoblar xos bo'ldi.

O'z mustaqil oilasini qurishga qadam tashlayotgan yosh avlodni FHDYdan o'tmasdan, islomiy nikoh o'qitmasdan oila qurish holatidan yiroq bo'lishini ta'minlash omillari sifatida respondentlar **"Azaldan bobo-buvilarimiz o'z nikohlarini jamoatchilikka ma'lum qilib kelganliklarini yoshlar ongiga singdirish joiz, dunyoviy va diniy nikohsiz qurilgan oilaning kelajagi yo'qligini yoshlar bilan uchrashuvlarda ular e'tiboriga yetkazish darkor"**, degan mulohazalarini ilgari surishdi. Xususan, Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda bu holat alohida ta'kidlangan:

عَنْ عَائِشَةَ قَالَتْ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ: **أَعْلِنُوا هَذَا النِّكَاحَ وَاجْعَلُوهُ فِي الْمَسَاجِدِ وَاضْرِبُوا عَلَيْهِ بِالذُّفُوفِ.**

Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Nikohni oshkora qilinglar va uni masjidlarda ado qilinglar! Nikohda do'mbira chalinglar".

Buning uchun esa OAVda muftiyat tomonidan muammoning yechimi uchun ishlab chiqilgan pand-u nasihatlarini yoshlar ongiga yetkazish lozim, deb ta'kidlaganlar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarni bunday illatlardan saqlashda



diniy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi hadislardagi ibratli masalalarni keng targ'ib etishni lozim, deb hisoblaymiz.

Barcha jamiyat a'zolarini, ayniqsa, joylarda mahalla mutasaddilari va faollarini ogohlikka, hushyorlikka, daxldorlikka chaqiruvchi signallar aniqlandiki, bu so'rovda ishtirok etgan respondentlarning salkam 40% ga yaqini mahallalarida, qarindoshlari, tanishlari orasida birgalikda qonuniy nikohsiz yashash yoki ko'pnikohlik asosida boshqa oila ega bo'lish holati real tarzda mavjudligini e'tirof etishdi. Demak, mazkur muammo bilan jiddiy shug'ullanish, uning yechimiga mos keladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda mahalliy boshqaruv organi – mahalla rahbariyati va faollarining roli o'ziga xosdir.



XOTIN-QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMASI VA MALAKASINING O'RNI VA ROLI

O'zbekistonda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan bo'lib, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" xamda "O'zbekiston - 2030 strategiyasi"ning mahsus yo'nalishlarida tizimli ishlar olib borilmoqda. Unga muvofiq, respublikada xotin-qizlarga tazyiq va zo'rvonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim va kasbiy ko'nikmalarini oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish gender tenglikni ta'minlash siyosatini izchil davom ettirish, ular tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali bandligini ta'minlash, ayniqsa, xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yolg'iz ayollarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar



samaradorligini oshirishga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda, ayniqsa, ijtimoiy himoya masalasida ehtiyojmand yolg'iz ayollarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Ehtiyojmand hotin-qizlar, himoyaga muhtoj, yolg'iz ayollarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor masalalarni chuqur tahlil qilish, ilg'or tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish yuzasidan aniq amaliy ishlarni tizimli amalga oshirish lozim. Yolg'iz ayollarning oilalarini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab-avaylash, ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish hamda jamiyatda konsensus muhitini rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Mahallalardagi "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mas'ul tashkilotlar, sektorlar tomonidan yolg'iz ayollarning muammolari o'z vaqtida hal etilishi ustidan jamoat nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Joylarda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yolg'iz ayollarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj yolg'iz ayollarga uy-joylarning boshlang'ich badalini to'lab berish bilan birgalikda, yolg'iz ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashish ishlari olib borilmoqda. Yolg'iz ayollarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan ma'qullangan dasturlar asosida tashkil etilgan o'quv kurslari qo'llab-quvvatlashga muhtojligi bor



yolg'iz ayollarimizning tadbirkorligini rivojlantirishda ularga bu borada tushunchalar berib kelmoqda. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining "Ishga marhamat" monomarkazlari, kasb-hunarga o'qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o'qitish maskanlari yoki nodavlat ta'lim muassasalarining kasbga o'rgatish o'quv kurslarining maxsus o'qitish dasturlarini amalga oshirgan holda yolg'iz ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berilmoqda. Mamlakatda ehtiyojmand yolg'iz ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o'qitish va bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand yolg'iz ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar tizimli davom ettirilmoqda. Xususan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 69-70-maqсадida xotin-qizlarning, shuningdek, ehtiyojmand yolg'iz ayollarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yolg'iz ayollarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ko'makka ehtiyoji bor yolg'iz ayollar o'rtasida tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish masalalarini ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasida ko'rish mumkin.

Ehtiyojmand yolg'iz ayollarda tadbirkorlikni rivojlantirish ularni kelgusida farovon va to'kin hayotning milliy tafakkur va turmush tarzida ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo'lishi, urf-odat, an'ana va qadriyatlarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.



Urf-odat, an'ana va qadriyatlar ijtimoiy me'yorlar sifatida, jumladan, milliy, diniy, umuminsoniy, shuningdek, odob qoidalari, madaniyat normalari, kishilar hayotida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning aksar qismini tartibga soladi.

Ayollar tadbirkorligi turmush tarzimizda urf-odat, an'ana va qadriyatlar milliy va mahalliy shakllarda namoyon bo'ladi.

Ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni kasb-hunarga o'rgatishning birlamchi omili sifatida shaxsning tafakkur tarzini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Yolg'iz ayollarning tafakkur tarzi, bilimlari jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko'nikma va malakalarini qaror toptirish esa avvalo, jamiyat ma'naviy muhitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, demografik muammolarning yechimini beradi, albatta. Bu hodisa MFY (Mahalla fuqarolar yig'ini) mas'ullari, ayniqsa, xotin-qizlar faolidan o'z hududida istiqomat qilayotgan yolg'iz onalar bilan ish olib borishda, ularning dunyoqarashi bilan muntazam ma'rifiy profilaktika ishini taqozo etsa, ularni mehnatga jalb etish orqali halol rizq topib, farzandlari va o'zini moddiy ta'minlashi uchun kasb-korga ega qilish, shuningdek, uning ijtimoiy nazorati va ijtimoiylashuvi borasidagi harakatlarni o'ta noziklik va ehtiyotkorlik bilan tashkillashtirish borasida doimiy ravishda izlanish va rivojlanishni taqozo etadi. MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, **xotin-qizlar faoli** xalqimizning azaliy milliy tafakkuri "Harakat - harakatda barakat" kabi milliy xotirasidan ajralmaydigan, o'ziga munosib turmush tarzini vujudga keltirishga xizmat qiladi. Yolg'iz ayollarning jamiyatda tutgan o'rni, tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishi, ularning faolligini ta'minlashda o'zbek oilalarining ajralmas qismi hisoblangan an'anaviy turmush tarzi aqidalaridan oqilona foydalanmog'i darkor. Jumladan, "Yaxshi xotin ishlik bo'lar, Yomon xotin - tishlik", "O'quvi bor ulg'ayar,



Uquvi yo'q sarg'ayar", "Ilmsizga ishonch yo'q, Hunarsizga quvonch yo'q", "Bekorchining hunari - g'iybat", "Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda", "Dangasaga bulut soyasi ham yuk", "Dangasaning ishi bitmas, Yoz kelsa ham qishi bitmas", "Ishchan tilagi - tong ota qolsa, Erinchak tilagi - kun bota qolsa", "Epchil xotin qor qalab, qozon qaynatar", "So'zlay-so'zlay gapchil bo'larsan, Ishlay-ishlay epchil bo'larsan", "Yaxshi xotin yo'q narsangni bor etar, Yomon xotin keng uyingni tor etar", "Chaqqon chora topar, Beparvo - bahona", "Zehn qo'ysang bilimga, Ilm tomar dilingga", "Birovning bergani - ko'rgulik, Mehnatning bergani - to'ygulik" kabi milliy maqollar orqali yolg'iz ayollarni faollikka, bilim olishga, mehnat qilishga, ilmga intiluvchanlikka, maqsad sari sabr-qanoat, toqat va chidam bilan kurashga farovon va to'kinlikka chorlashi kerak bo'ladi.

MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, xotin-qizlar faoli o'z hududida yolg'iz ayollarni faollikdan og'diruvchi maishiy to'siqlarni, shuningdek, ularni ishbilarmonlik, tadbirkorlikdan cheklash, ularni bu faoliyatdan cheklovchi zo'ravonliklarni, ularni passiv qabul qilish kayfiyatidagi mikromuhitni bartaraf etishlari kerak bo'ladi. Chunki bugungi kunda jamiyatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, ayniqsa, yolg'iz ayollarga, ularning ijtimoiy faolligiga nisbatan jamoatchilik munosabatini shakllantirmoqda. Biz MFYda faoliyat olib borayotgan mas'ullar, avvalo, **xotin-qizlar faoliga** yolg'iz ayollar bilan ishlashda R.Likertning "Jamlangan baholar" shkalasidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu shkala asosida sotsial munosabatlarni, jumladan, yolg'iz ayollarning jamiyatga, oilaga, siyosatga va hokazolarga nisbatan qarashlari, fikr-mulohazalarini, munosabatlarini baholash mumkin. R.Likertning ta'kidlashicha, ayollarning farzandga, yoshlarning qariyalarga munosabatini baholashda to'g'ridan to'g'ri berilgan



savollardan foydalanib bo'lmaydi, chunki respondent salbiy fikrlarini oshkora, bemalol bildira olmaydi. Bu holat uning dunyoqarashida alamzadalikni kuchaytirib borishi alaloqibat uni eshituvchi "kuchlar"ning domiga ilinishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham savollar zahirida yashirin holatlar bo'lishiga alohida e'tibor berishilishiga erishish kerak bo'ladi.

Yolg'iz ayollar munosabatini baholashni o'rganish maqsadida mazkur shkaladan foydalanib, ijobiy (+) va salbiy (-) fikrlarni ajratish imkoniyati tug'iladi. Ijobiy ma'nodagi savolga 5 ball maksimal bahoni, salbiy savolga esa 1 ball minimal baholash mumkin. Shkala bo'yicha jami minimal ball 10 ballga, jami maksimal ball 50 ballga teng. Yaxshi natijalarga erishishimiz, avvalo, tuzilgan savollarning sifati, fikrlarning ketma-ketligi, uzviyligiga, oddiydan murakkabga, mazmunning aniqligi, mohiyatning yashirinligiga va albatta, ballarni to'g'ri qo'llashga bog'liqdir. R.Likert indeksdan foydalanish bo'yicha quyidagi ko'rsatmalarni ishlab chiqqan:

1. Indeksning alohida obyekt, jumladan, respondentlar va alohida obyektlar guruhi bilan belgilanishini ajrata olish.
2. Indeksni ishlab chiqish jarayonini baholash yoki shkalalashtirish.
3. Matematik usullardan foydalanish.
4. Indeks tahlili esa indeksni ishlab chiqish, ularni qo'llash, mantiqiy, individual, guruhli va tarkibiy indeksni ajrata olishni anglatadi. Indeks fanda muhim rol o'ynaydi, chunki u taqqoslash vositasi sifatida xizmat ko'rsatadi. Zero, mutaxassis uchun taqqoslash muhim hisoblanadi. Vaholonki, yolg'iz ayollarga munosabat, ularning oila va jamiyat hayotidagi o'rni, tadbirkorlik, ijtimoiy faollik borasidagi qarashlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.



YOLG'IZ AYOLLARNING ETNODIFFERENSIAL VA ETNOSOTSIAL BELGILARI

Aholi istiqomat qilayotgan demografik va jug'rofiy muhit, ijtimoiy iqtisodiy omillar ayollar ongi, bilimi va subyektiv borlig'iga ta'siri aksioma sifatida e'tirof etiladi. Ayolga ta'sir etadigan etnodifferensial va etnososal omillar ma'lum bir muhitni ifoda etishi, ushbu muhitning mahsullari sifatida uning asosiy xususiyatlari va jihatlarini o'zida mujassam qiladi.

Yolg'iz ayollarning etnodifferensial va etnososal belgilari nimalarda aks etadi? Bu o'rinda etnodifferensial va etnososal belgilarga diqqatimizni qaratishimiz zarur bo'ladi. Shuning uchun yuqoridagi savolga javobni etnodifferensial belgilarni izlashdan boshlaymiz. Yolg'iz ayolning turmush tarzi, ma'naviy hayoti, urbanizatsion taraqqiyoti va sotsial munosabatlariga oid muammolarni o'rganishdan kelib chiqib, etnodifferensial belgilarini: lokal etnomadaniyati; o'ziga xos turmush tarzi; tili va muomala an'analari; urf-odatlarini; barqaror qadriyatlarga moyilligi; madaniyati kabilar orqali ochib berishimiz mumkin. Aslida, mutlaq lokal madaniyat yo'q bo'lsa-da, "lokal madaniyat"ni biz hududdagi ayollarning o'ziga xos, boshqa hududlardagidan, ayniqsa, uning turmush tarzidagi farqlovchi belgilarini nazarda tutgan holda baholashimiz mumkin. Ushbu belgilar aniq ko'rinishlarda qolgan belgilarda namoyon bo'ladi. Masalan, lokal etnomadaniyatni ayollarning o'ziga xos turmush tarzi va



urf-odatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Undagi rang-baranglikni ta'minlovchi shakl, o'ziga xoslik, boshqa hududlardan farq qildiruvchi jihatlariga ega yoxud boshqa hududlardagi turmush tarziga o'xshamaydigan sabablari mavjud. Shu bilan birga, lokal etnomadaniyatning o'ziga xos umummilliy jihatlari ham mavjud, albatta. Ayniqsa, bu rang-baranglik globallashuv davrida o'zlikni asrash, etnomadaniy belgilarni kelgusi avlodlarga yetkazish funksiyasini nechog'lik muhim ekanligini kun tartibiga qo'yimoqda. Aslida, lokal madaniyatlar ham umummilliy va umuminsoniy negizlariga intiladi, ularga tayanib, o'zini namoyon qiladi, rivojlantiradi. Masalan, oilaviy hayoti **barqaror aholi o'rtasida** gender tenglik masalasining qo'yilishi taajjub uyg'otadi. Yoki ota-ona bilan farzandlar o'rtasida inoqlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash ustuvor oilalarda bola huquqlari, ayniqsa, bolaning o'z ota-onasini sudga berishi mumkinligiga oid huquqiy tadbirlar o'tkazish ham kishida hayrat uyg'otmay qolmaydi. Turmush tarzidagi ustuvor an'analar, ayniqsa, er bilan xotin, ota-onalar bilan farzandlar, aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi inoqlik, qo'shnilarining birlarini qo'llab-quvvatlashi, yaqinligi yuridik normalarning va tadbirlarning aralashuviga hojat qoldirmaydi. To'g'ri, zamonaviy turmush tarzida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda, ular kishilar ongi va qarashlariga ikki tomonlama ta'sir etmay qolmaydi. Ayniqsa, urbanizatsiyalashuv jarayonlari avvalgi tasavvurlarni o'zgartirib yuborayotganini kuzatamiz.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi "Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti" tomonidan bajarilgan "Qonuniy nikohsiz yashash va norasmiy shar'iy (diniy) nikohning oldini olish mexanizmlari" mavzusidagi loyiha doirasida aniqlangan yolg'iz



ayollarga oid muammolarning belgilari tahlili va oqibatlariga e'tibor qaratamiz.

“Ommaviy madaniyat” ta'siriga tushgan xalqlarda nikoh munosabatlarining o'z ahamiyatini yo'qotayotgani, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va “erkinlik” g'oyalari asosida paydo bo'lgan nikoh turlaridagi transformatsiyalar hamda demografik muammolarni keltirib chiqaruvchi holatlar mavjud. Shuningdek, jamiyat muhitida ham yoshlar va o'rta avlodga taalluqlilar bir qismining nikoh an'analari va qoidalaridan chetlasha boshlashi kuzatildi. Bu diniy qadriyatlarining oyoqosti qilinishiga, diniy-axloqiy qadriyatlar insonlar ongidan yo'qola boshlashiga sabab bo'ladi.

Globalashuv sharoitida oila-nikoh munosabatlarining yemirilishi, uning g'ayriaxloqiy sabab va oqibatlari, jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati nikoh munosabatlari transformatsiyasi, ya'ni odatlar va marosimlarining o'zgarishi, boshqacha mohiyat kasb etishi, ba'zilarining yangidan yoki qayta hosil bo'lishi bilan ham bog'liqdir.

Nikohdan tashqari munosabatlar sodir bo'lishi, avvalo, erkak va ayol tarbiyasi, shakllangan muhiti, atrofdagilarning munosabati va shaxsiy psixologiyasiga bog'liq.

Birinchiidan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, birga yashab kelayotgan er-xotinning begona shaxs bilan jinsiy-emotsional aloqada bo'lishi yoki xiyonat qilishi kabi g'ayriaxloqiy xatti-harakatlarning sabab va oqibatlari – nikohdan tashqari munosabatlar ijtimoiy me'yorlardan og'ishga, axloqiylik izdan chiqishiga va milliy-diniy qadriyatlar taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.



Ikkinchiidan, nikohdan tashqari munosabatlarning sabablari: birinchiidan, nikohlanuvchilarning o'rtasida tuziladigan norasmiy shar'iy nikoh bo'lib, buning natijasida insonlar oila, oilaviy munosabatlar va turmush o'rtog'idan tez to'yinadi hamda ularda nikohdan tashqari munosabatlarga moyil deviant xulq shakllanadi.

Uchinchiidan, nikohlanayotgan kelin-kuyov bir-birlarini yaxshi bilmasdan, tanimasdan nikohdan o'tadilar. Ularning nikohdan oldingi oilaviy munosabatlar haqidagi tasavvurlari nikohdan keyingi real hayot bilan mos kelmaydi.

To'rtinchiidan, insoniyat hayotida bo'layotgan turli xil o'zgarishlar, ijobiy va salbiy ta'sirlar, ruhiy, moliyaviy, ma'naviy depressiyalar, mansab pillapoyasidan o'sish yoki tushish, yaqin insonlarni yo'qotish yoki turli xastaliklar stres yoki jo'shqin kayfiyatni paydo qiladi. Bunday holatga tushgan inson uni haqiqatda tinglay oladigan, dard-u hasratlariga tushunadigan, qiynalganida ko'mak beradigan sherik izlaydi. Turmush o'rtog'iga doimiy muammolarni aytish ham oilaviy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ushbu holatlardan tashqarida bo'lgan juft izlab topadi.

Beshinchiidan, oilada farzandlarning dunyoga kelishi natijasida kelin-kuyovning asosiy e'tibori va mehri bolaga qaratiladi. Natijada bu juftlik bir-biriga kamroq vaqt ajratadi hamda oraga sovuqchilik tushadi. To'ldirilmagan mehr nikohdan tashqari munosabatlardan izlanadi.

Oltinchiidan, er yoki ayolning jismoniy, nainki aqliy mehnatga chuqur sho'ng'ib ketishi oqibatida oilaviy juftiga kamroq vaqt ajratadi. U bilan gaplashishga, kulishishga, shodlik lahzalarini



tuyishga, qayg'uli va quvonchli hissiyotlariga sherik bo'lishga umuman vaqt topmaydi. Natijada ular orasida hissiy ajralish sodir bo'ladi va ikkinchi tomon o'ziga boshqa "g'amxo'r" qidiradi.

Yettinchidan, turmush o'rtog'ining ideallariga mos tushmaydi. Kelib chiqqan nizolar natijasida asta-sekin oraga sovuqchilik tushishi sodir bo'ladi.

Respublikamizda ehtiyojmand, ko'makka muhtoj xotin-qizlar muammosi, ya'ni "ijtimoiy muammolar" mavjud bo'lib, xususan, ayol yolg'izligi, oiladagi muammoning asosiy yuki ayolning zimmasiga tushgani yoki turmush o'rtog'i ishsizligi oqibatida oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik yuzaga kelgani, shuningdek, qonuniy ajrashgan va hozirgi kunda chet mamlakatlarga ishlash uchun chiqib ketgan oilalarning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlar bilan bog'liq holatlar hozirgi kunda ham yetarlicha kuzatilmoqda. Ta'kidlash lozimki, hozirda oiladagi nosog'lom muhit sababli farzandlar yoxud er va xotin tarbiyasida kuzatilayotgan salbiy o'zgarishlar, psixologik tazyiq va zo'ravonliklarga uchrayotgan voyaga yetmagan qizlar tarbiyasi mutasaddilar tomonidan qat'iy nazoratga olingan va bu borada juda katta ijtimoiy himoya tizimiga asoslangan profilaktik ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Muammolarni hal qilishning pedagogik psixologik shart-sharoitlari yaratilmoqda. Hududlar kesimida maqsadli va manzilli iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy qo'llab-quvvatlov tizimi ishga tushirilgan. Ammo tizimda amalga oshirilayotgan bu kabi uzluksiz ishlar faoliyatiga qaramasdan, jamiyatimiz ma'naviy muhitiga mutlaqo yot bo'lgan salbiy jihatlar – submadaniyatlarning urchib borayotgani xavotirli signallardan biridir. Xususan, *jismonan sog'lom, boqimandalikka o'rgangan, radikal dunyoqarashga ega ayollar toifasi yuzaga kelib,*



ularni ayollar daftariga kiritilganligi va kiritilmagan jismonan sog'lom, ammo boqimandalik kayfiyatidagi, radikalikka moyil dunyoqarashga ega ayollar bilan suhbatlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, ularni shartli ravishda 5 ta kategoriyaga ajratish mumkin.

Birinchi toifadagilar: bu birinchi turmushidan (oilasidan) ajrashgan 1 ta yoki 2 ta farzandi bor ayollar. Ularning bir qismi muqim uy-joyga ega bo'lib, ularning ichida ayrimlari shaharga ish qidirib kelgan, o'qish uchun kelgan uylanmagan o'qiydigan talabalar, ko'proq ish qidirib kelgan va o'z uy-joyiga ega bo'lmagan "ichki migratsiya" toifasidagi bozorlarda savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan savdogarlar, tadbirkorlar, shaxslar (uylanmagan yoki uylanganlari ham bor yigitlar yoxud turmushga chiqqan yoki turmush qurmagan xotin-qizlar)ga norasmiy shar'iy nikoh asosida (agar rost bo'lsa, albatta) "erga" tegib, "uylanib" olganlar va bizning sha'riy nikohimiz bor deb yashab yurganlardir. Achinarlisi shundaki, bu toifa erkaklar, yigitlarning (yoki qizlarning) ayrimlarining o'z oilasi, ota-onasi bu holatdan bexabar. Xavfli tomoni ertaga ular kimningdir bokira qiziga uylanadi yoki ularga turmushga chiqadi. Chunki joylarda ularning ota-onalari "farzandim ishlab, o'qib yuribdi, kelsa uylantiraman, turmushga uzataman", degan yaxshi niyatlar bilan o'z ko'z ostilariga bir yaxshi oilaning qizini yoxud o'g'lini olib o'tiribdilar va ular o'z ota-onasi uyiga qaytgach uylantirib (turmushga uzatib) qo'ymoqdalar. Bilmaganligi sababli ota-onalari ularni uylanmagan o'g'lim (yoxud qizim bokira) deb o'ylashadi. Jamiyat ma'naviy muhitiga tahdid shundaki, bu toifaning aksariyati yana "**o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas**" qabilida ota-onasi xizmatiga uyidagi yosh, "tajribasiz" kelinni tashlab "**ishlash, o'qish maqsadini niqob**



qilib", o'rgangan joyiga qaytib ketishi kuzatilmoqda. Bu holatda, asosan, (yolg'on, yashirin holat, ishonchni suiiste'mol qilish, milliy, diniy qadriyatlarga bepisandlik, axloqsizlik, qonunga zid hatti-xarakterlar) yigitning yoxud qizning ota-onasi, yaqinlarini boxabar qilmagan holda norasmiy shar'iy nikohga kirayotgan ayol-qizlar ham jabrlovchi, ham jablanuvchi (voqeadan umuman xabarsiz rasman nikohdan o'tgan ayol-qizlar) ayol bo'lib qolishi kuzatilmoqda. Natija esa achinarli bo'lib, o'rtada ham rasmiy nikoh asosidagi oilada hamda norasmiy shar'iy nikoh asosidagi oilada ham farzandlar dunyoga kelmoqda.

Aksariyat hollarda vaqt o'tishi bilan rasman uylangan xotinidan ajrashib ketish holatlari va norasmiy shar'iy nikoh asosidagi oilasiga qaytib ketish holatlari kuzatilmoqda. Masalaning fojiviy tomoni shundaki, jamiyat muhitida uchrab turgan bu holatlarda har ikki tomonda ham **"yolg'iz ona"** toifasiga kiruvchi tirik ijtimoiy yetim farzandlar soni ko'payib bormoqda. O'zaro ishonch va orzu-umidlarning suiiste'mol qilinishi oqibatida bunday oilalarning muayyan qismida nosog'lom muhit yuzaga kelmoqda. Masalan, yaxshi niyatlar bilan turmushga chiqqan qizning turmush o'rtog'i tomonidan aldanib qolishi uni alamzadalik oqibatida yomon yo'llarga kirib ketishi yoki o'z joniga qasd qilishi yoki uni turmushga bergan yaqinlari bilan munosabatlari yomonlashuvi yoki oilani mustahkamlab qolish uchun harakat qilayotgan (o'g'lining kirdikorlaridan ayrimlari bexabar ayrimlari, boxabar bo'lgan) qaynona-qaynotaga nisbatan, muqaddas oila institutiga nisbatan munosabatlarni salbiy rakursga ko'chirmoqda.

Bu masala mahalla mas'ullarini, mahalladagi jamoatchilik kengashlarini, ayniqsa, xotin-qizlar faolini o'z funksional faoliyatini manzilli va maqsadli, kuchli ijtimoiy nazorat asosida yo'lga qo'yish kerak ekanligini talab etishi bilan birga ilmiy



jamoatchilik tomonidan muammoning ijtimoiy embrionlari jiddiy tadqiq etilishini talab qiladi.

Ikkinchi toifadagilar: turmushidan muayyan obyektiv, subyektiv sabablarga ko'ra ajrashgan va hozirda muqim yashash joyi yo'q ayollar bo'lib, ular aksariyat holatlarda ota-onalar qistovi bilan turli oilaviy muammolarni (birinchi oilasi uy-joy bilan ta'minlamagan, o'zining ota-onasi **"chiqqan qiz - chig'iriqdan tashqari"**, seni uzatganman (erga berganman) uyda sen uchun joy (sharoit, imkoniyat) yo'q, akang, ukang kelinoying muammo qiladi" kabi) ro'kach qilib majburan ikkinchi xotin qilib uzatilayotganlardir. Bu toifalarning aksariyati norasmiy shar'iy nikoh asosida erga tegib ijaraga uy olib chiqib ketishga majbur bo'lishadi. Ammo vaqtinchalik zo'rma-zo'raki tuzilgan oiladagi "erning" topish-tutishi yoxud shahvoniy mayllari tugashi bilan bunday oilalar ham o'z nihoyasiga yetib borayotgani kuzatilmoqda.

Bunday norasmiy oilalarda tug'ilayotgan farzandlarning, ya'ni o'rtada dunyoga kelgan bolalarning na rasman otasi, na muqim uy-joyi bor bo'lib, bir muammo keyingi islohi qiynlashtirilgan ijtimoiy iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu toifa qizlarimizning aksariyati ilmsiz johil ota-onalarning, aka va kelinoyilarning, bir so'z bilan aytganda, o'zlarining o'quvsizligi, kasb-korga ega emasligi, qat'iyatsizligi sababli yuzaga kelmoqda. Shuningdek, ularning dunyoqarashi, bilim va ko'nikmalari ham cheklangan bo'lib, ular turmushga chiqish, ya'ni norasmiy nikohdan o'tish paytida, asosan, yigitning birinchi oilasi borligini, uning oila a'zolari bu nikohga qarshi ekanligini, bu yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilgan va ongli ravishda yashirin nikohdan o'tgan. Muayyan muddat, ya'ni norasmiy nikohiga olgan **"erkak yo'qolib"** qolgunicha shaharning har xil tumanlarida ijarada yashab yuravergan toifalardir.



Uchinchi toifadagilar: ajrashgan, ammo borarga joyi ham, ishlashga ishi ham, kasb-kori ham, o'quvi ham yo'q xotin-qizlar. Ularda "tur mush o'rtoq" ham, "nikoh" ham, "yashaga joyi" ham sanoqsiz. "Sheriklari"lari tez-tez almashgani bois, ya'ni kim nechchi oy yoki hatto nechchi kun boqsa, o'shalar bilan yashab yuribdi. Bu toifaning jamiyat muhitida paydo bo'lgani bir qator xavf-xatarlarni, ma'naviy tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Birinchidan, har xil yuqumli kasalliklar, ikkinchidan, o'rinda otalik fakti belgilanmagan farzandlar, uchinchidan, o'rinda ayollar daftari ga kiritilishiga sabab bo'layotgan jismonan sog'lom, ammo bilimsiz, kasb-korsiz, quvsiz ayollar, to'rtinchidan, oila a'zolar dan birining xiyonati oqibatidagi ajrimlar, beshinchidan, jamiyat muhitida nosog'lom tur mush tarzining targ'iboti yoyilishiga sabab bo'lmoqda.

To'rtinchi toifadagilar: bu o'ziga to'q, ya'ni ta'minotini ta'minlab turgan erkak bilan norasmiy shar'iy nikoh asosida yashab kelayotgan ikkinchi yoki uchinchi xotinlar. Bular moddiy ta'minoti qoniqarli bo'lgani uchun mahallalarda, tadbirlarda umuman ishtirok etmaydi. Ular ongli ravishda "erkak oila ta'minotchisi" tamoyilidan samarali foydalanadilar. Ammo bu toifa ayol-qizlarimiz ham jamiyat ma'naviy muhitiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Avvalo, yosh qizlarimizning oilaga, tur mushga bo'lgan munosabatida degradatsiya holati yuzaga kelmoqda, ya'ni oila qurish, qaynona, qaynota, erning xizmatlari ular uchun ortiqcha qiyinchiliklar keltirib chiqarishini ongli ravishda qayd qilgan holda emin-erkin (yaxshigina iqtisodiy ta'minotida kam-ko'stsiz, tayyor uy-joy va alohida e'tiborda), ya'ni haftada 1 marta yoxud 2 marta kelib-ketuvchi ikkinchi xotin bo'lib yashash tendensiyasi oshishiga sabab bo'lmoqda.



Beshinchi toifadagilar: bu ikkinchi oila qurish uchun yetarli asos sabablari bo'lgan kasalmand, tug'magan, ajrashgan (rasmiylashtirilmagan), iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib iqtisodiy ta'minlanish uchun nikohlangan va hokazolar. Achinarlisi, bu toifaa juda kam bo'lib, o'rganilganlarning 10-15 foizini tashkil etmoqda.

Har qanday holatda ham yolg'iz ayol hayotini barqaror qiluvchi qadriyatlarga, tur mush tarziga moyildir. U serharakatchanlikni, shovqinni, dinamik o'zgaruvchanlikni yoqtiravermaydi. Unga sekin, tadrijiy o'zgarishlar yoqadi. Radikal islohotlar uning fikr va tasavvurlarini ag'dar-to'ntar qilib yuboradi, barqaror qadriyatlarga tajovuz bo'lib ko'rinadi. Yolg'iz ayol yon-atrofidagi o'zgarishlarni darrov qo'llab-quvvatlayvermaydi, u yopiqlikka moyil. Oilaviy mojarolar va ajrimlar keng tarqalgan hodisaga aylangan bo'lsa, unda **xotin-qizlar faoli** huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtiruvchi subyektlarga ko'proq urg'u beradi. Chunki huquqiy madaniyat inson xatti-harakatlarini funksional tartibga soladi, u borliqda ro'y berayotgan o'zgarishlarga siyosiy-huquqiy baho beradi, sotsium uchun zarur normalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Huquq fenomeni ratsional voqelik bo'lgani uchun u huquqiy madaniyatni ham ratsional voqelikka aylantiradi. Ratsionallik esa obyektiv borliqni aqliy idrok, tafakkur va ichki ziddiyatlari bilan anglash jarayonidir. Salbiy hollar shaxsiy munosabatlar davomida shakllanadi, "sen menga" degan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar amalga oshiriladi. Shuning uchun ham shaxsning huquqiy amalga oshiriladi. Shuning uchun ham shaxsning huquqiy madaniyati, agar g'ayriqonuniy xatti-harakat sodir etilayotgan bo'lsa, uning ijtimoiy-huquqiy faolligi muhim ahamiyatga ega. Agar shaxs shunday faollik ko'rsatmasa, o'zining huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'yib bersa, g'ayriqonuniy illatlar tugatilishi shubha ostida qoladi. Huquqiy madaniyat nafaqat



demokratik taraqqiyot ifodasi, mezoni, shuningdek, demokratik taraqqiyot huquqiy madaniyat mahsulidir. Mazkur dialektik bog'liqlik ularni demokratik taraqqiyot atrofida uyg'unlashtiradi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, islom huquqshunosligi inson huquqlarini bundan o'n uch asr oldin ijtimoiy hayotga va munosabatlarga olib kirgan, bu borada pozitiv tajribalar to'plagan¹⁰. Ammo bu tajribalarda axloqiy qadriyatlar, goho huquq bilan uyg'un kelsa-da, ustuvordir. Chunki "islomda huquq bilan axloq uyg'un keladi. Aksariyat hadislarda axloq, insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini huquqdan ustun qo'yiladi. Bu huquqiy antropologik yondashuvdir. Bunday hollarda o'rnatilgan normalar emas, insonning ezgu amallari, taqvodorligi, birodarlarini qo'llab-quvvatlashi, ularga mehr-muhabbat ko'rsatishi kabilar hisobga olingan. Ezgulik, boshqalarga yaxshilik qilish, kechirimli, to'g'riso'z bo'lish, birovga ozor yetkazmaslik, haqni so'zlash, taqvodor bo'lish kabi axloqiy talablar musulmon dunyosidan sotsionormalar tarzida joy olgan.

Ushbu sotsionormalar turmush tarzida ma'lum bir tartiblarni shakllantirgan. Masalan, ota-ona, aka-uka va qarindoshlar beva, turmushidan ajrashgan, voyaga yetmagan xotin-qizlardan, yolg'iz ayollardan hol-ahvol so'rashi, qaramog'iga olish, ijtimoiy iqtisodiy nazoratida ushlashlari va zarur yordamlarni tavsiya etishlari islomdagi oliyjanob sotsionorma hisoblanadi. Huquq bilan sotsionormalar o'rtasidagi yana bir muhim dialektik uyg'unlik, kontinuumlik shundaki, huquqning majburlash mexanizmi sotsionormalarni harakatga keltiruvchisi bo'lishi kerak. Chunki sotsionormalar ham o'zidan o'zi, mexanistik tarzda

¹⁰ Musayeva N. Imom Buxoriyning "Al Jome' as sahih" asari va uning ijtimoiy antropologik mohiyati. – Toshkent: Innovatsiya Ziyov, 2019. – 127 b.



shakllanavermaydi, shu o'rinda ularga huquq mexanizmlari yordamga kelishi lozim.

Umumiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, huquq va axloqning ushbu regulyativ funksiyasi obyektlarining ijtimoiy maqsadlarga muvofiq keladigan faoliyatini, yashash tarzini shakllantirishga qaratilgan. Huquq va sotsionormalar iroda erkinligi va teng huquqlilikning ijtimoiy munosabatlardagi ifodasi sifatida keladi. Iroda erkinligi va tenghuquqlilik jamiyat taraqqiyoti ko'rsatkichlari qatoriga kiruvchi voqelik sifatida jamiyat ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirib boradi.

Milliylikni o'zida mujassamlashtirgan qadriyatlar o'rniga millat uchun begona bo'lgan submadaniyatlar, yot g'oyalar uning o'zligidan ayiradigan odatlarning kirib kelishi har bir millatparvar insonni tashvishga soladi.

Ijtimoiy larzalarning sodir bo'lishiga va otalik fakti belgilanmagan ijtimoiy yetim bolalar sonining keskin ortib ketishiga yana bir sabab o'zbek yigit-qizlarining muqaddas nikoh talablarini suiiste'mol qilishlaridadir. Har qanday norasmiy nikoh va nikohdan tashqari munosabatlardan o'zlarini tiyib turmasliklari oqibatida nikoh, oilaviy qadriyatlar yemrilishi kuzatilmoqda. Norasmiy shar'iy nikoh – bu turmush qurayotgan juftlikning ikkalasi tomonidan qonunni buzish, hududlarda qonun ustuvorligi, huquq me'yorlariga amal qilmaslik dekmakdir. Ular oilaviy qadriyatlar, nikoh, burch, turmush nimaligini anglab yetmagani sababli aksariyat ushbu munosabatga kirishgan ayolning ham, erkakning ham ijtimoiy ahvoli og'irlashib, oila a'zolarini boqish imkoniyati pasaymoqda.

Natijada ota-ona yoki yolg'iz ona bir nechta farzandini boqa olmayapti. Ikkinchidan, xalqda diniy savodxonlikning yetarli



yemasligi, ota-onalar katta hayotga kirib kelayotgan yosh qizlarini ijtimoiy muammolardan himoya qilish maqsadida ularni "eson-omon ertaroq egasiga topshirish" degan tushunchaning mavjudligi, yoshi o'tgandan so'ng "qari qiz" bo'lib qolib ketadi degan ijtimoiy qo'rquvlar ota-onalarning farzandlari jismonan yoki ruhan oilaga tayyor bo'lmasalar-da, erta turmushga chiqishiga majbur qilishi va albatta, nikohdan tashqari munosabatlar ma'naviy-axloqiy muammo ekanligidadir.

O'zbekistonda norasmiy shar'iy nikohlar soni ko'payishi va ajrimlarning oshishi, bir tomondan, iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi salbiy holatlar, ikkinchi tomondan, turmush qurganlarning milliy, diniy talab-qoidalarga to'liq amal qilmay qo'yganliklari, ota-onalarda farzandlar uchun mas'uliyat hissi bo'shashgani bilan izohlanadi.

Shu o'rinda har bir MFY xotin-qizlar faoli o'z hududidagi har bir ayol bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirishi va ularga oid ma'lumotlarni tahlil qilishi hamda ular bilan ishlash bo'yicha yo'l xaritasiga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bunda u nafaqat ehtiyojmand toifaga taalluqli xotin-qizlar bilan ishlashi, balki MFYdagi barcha ayollar tarkibini qamrab olmog'i kerak bo'ladi. Mazkur yo'l xaritada MFY hududida istiqomat qilayotgan xotin-qizlarning yosh xususiyatiga, kasb-koriga va albatta, qiziqishlariga ko'ra guruhlarga ajratib, kichik guruhlarda va yakka tartibda ishni tashkil etish chora-tadbirlari o'z ifodasini topmog'i kerak bo'ladi.

MFY xotin-qizlar faoli 5 toifadagi ayollar bilan ishlashda sohaga oid mutasaddilar bilan hamkorlikda ishlashi qat'iy talab hisoblanib, asosiy maqsad bu toifa ayollarning muammolarini ijtimoiy xodimlar hamkorligida bartaraf etish, ularni sog'lom turmush tarziga qaytarish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ularning bandlik muammolarini hal qilish va albatta, ularning



ijtimoiylashuvini ta'minlash orqali ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishdir.

Shuningdek, ayollar o'rtasida huquqiy ma'rifiy tadbirlarning ta'sirchanligini oshirish, huquqiy asoslarni aholi ongi, tasavvurlarida va xulq-atvorida tezroq joy olishiga yordam berishdir. MFYlarda tashkil etiladigan huquqiy ma'rifiy tadbirlar ko'pincha sotsial faktlarga asoslanib ijtimoiy munosabatlardagi nizolar va ularning hal qilinishi esa auditoriya, bizning misolimizda yolg'iz ayol, uning psixologik holati bilan bog'liqdir.



KO'PXOTINLIKNING HUQUQIY OQIBATLARI¹¹

Bugungi kunda ko'pxotinlik masalasiga oid muammolarning olimlar tomonidan demografik, iqtisodiy, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatlari tadqiq etilmoqda. Chunki oiladagi muhit jamiyat hayotining asosi hisoblanib, ko'pxotinlikka asoslangan norasmiy shar'iy nikoh asosidagi juftliklar o'rtasidagi ajrashishlar, ijtimoiy yetim bolalarning ortib borishi, ayollar suitsidi va ayollar jinoyatchiligi sonining ortib borishi va shunga o'xshash bir qator salbiy holatlarga sabab bo'lmoqda.

Otalik fakti, meros masalasi bilan bog'liq huquqiy masalalar kun tartibiga chiqmoqda. Demak, vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish va kelajakda bu kabi salbiy hodisalarni bartaraf qilish uchun oilalar bilan ishlash tizimida yangicha yo'nalishdagi va samara beradigan mexanizmlarni joriy etish talab qilinadi. Aksar mamlakatlarda, xususan, **Turkiyada** Otaturk ko'pxotinlilikni 1924-yil 5-avgustda rasman taqiqlagan. 1959-yilda **Tunisda** ko'pxotinlilik taqiqlangan.

¹¹ O'rganilgan manbalar: <https://thebiggest.ru/drugoe/gde-razresheno-mnogozhenstvo.html>, <https://gkd.ru/431508a-gde-razresheno-mnogozenstvo-stranyi-ofitsialnoe-razreshenie-realnost-i-vidyi-https://interesnyy.com/gde-razresheno-mnogozhenstvo/>, <https://kub.media/news/5999-dve-zheny-norma-kakih-stranah/>, <https://islam-today.ru/novosti/2017/03/28/saudovskie-vlasti-vozmut-mnogozenstvo-na-kontrol/>, <https://profsovet.com/razreshaet-li-zakon-mnogozhenstvo/>, <https://svadbagolik.ru/article/mnogozhenstvo/>, <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/countries-where-polygamy-is-legal>



Turkmanistonda 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab ko'pxotinlilik taqiqlangan. **Qozog'istonda** ham ko'pxotinlilik taqiqlangan. Ammo 1998-yilda u jinoiy harakatlar qatoridan chiqarilgan. **Qirg'iziston Respublikasi** Oila Kodeksining 15-moddasi bilan ruxsat berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 16-moddasiga ko'ra, nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar sifatida:

- loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;
- nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;
- loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi, deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasiga muvofiq, ko'p xotinli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



XULOSA

Kishilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotlari farovon hamda obod tarzda bo'lishini ta'minlash har qanday jamiyat boshqaruvining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu jarayon ko'p qirrali va murakkab xususiyatlarga ega bo'lib, u jamiyat a'zolaridan o'zaro birdamlik, mehr-oqibat, xayr-saxovat, himmat, mustahkam oilaviy hayot hamda tizimli va samarali iqtisodiy faoliyatni talab etadi. Bunda birinchi navbatda oila instituti o'zining barqaror holati bilan ijtimoiy taraqqiyotga salohiyatli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Bu sosial institut barqarorligini ta'minlashda milliy-dunyoviy xususiyatlar va diniy e'tiqodimizning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oila a'zolari orasidagi yuksak axloqiy-tarbiyaviy munosabatlar, samimiy va do'stona muloqotlar tufayli oilalar barqarorligini ta'minlash bo'yicha biz dunyo mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaymiz.

Har qanday jamiyatning barqarorligi oila mustahkamligi bilan bevosita bog'liq ekan, bunda oilaning ijtimoiy ahamiyati ham oshib boraveradi. Oilaning mustahkamligi va jozibadorligi, uning mohiyati uni ijtimoiy birlik, kichik ijtimoiy guruh va ijtimoiy institut sifatida tavsiflash bilan bog'liq. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, oila – bu mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir. Oilaning mustahkamligi bir qator omillarga bog'liqligini e'tirof etib, ular



ichida islom qadriyatlarining o'rni qanday ekanligini amalga oshirilayotgan ilmiy, amaliy tadqiqotlar juda yaxshi ko'rsatib bermoqda. Takidlash joizki, o'zbek oilalari mustahkamligiga islom ahloqi ta'siri ijobiy bo'lib, joylarda mutasaddi kishilar "yettilik - oqila ayollar - ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha targ'ibotchilar - oqsoqollar kengashi - imom xatib va otinoyilar" hamkorlikda oilaviy nizolarni bartaraf qilishda islom dini qadriyatlariga yanada chuqurroq tayansalar, ajab emaski bunday nizolarni kelib chiqish ildizlari o'z vaqtida kesiladi.

Oila mustahkamligi masalasi murakkab hisoblanib, uning yechimiga kompleks yondashish sermahsul natija beradi. Bunda birinchi omil bu er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat va ehtirom, ikkinchi sabab sifatida ota-onaning roziligi va ular duosi hamda uchinchi omil esa yetarli moddiy ta'minot hisoblanadi. Oilaning tarixan shakllangan ijtimoiy birligi va qadriyat qiyofasi nikoh munosabatlaridan alohida qabul qilinadi va dunyoqarashlarda saqlanib qoladi.

Zamonaviy oila evolyusiyasi va dinamikasining asosiy yo'nalishlaridan biri jamoaviy-ijtimoiy institut formatidan guruh formatiga o'tish tendensiyasidir. Bu zamonaviy oilada iqtisodiy funksiyalar zaiflashayotganini anglatadi. Oilada yetakchi o'rinni psixologik muhit va turmush o'rtoqlarning shaxsiy o'zaro munosabatlari egallaydi. Qizig'i shundaki, agar tadqiqotchilar tomonidan oilaning eng muhim funksiyalari sifatida e'tirof etilgan reproduktiv (avlodning o'sishi) va tarbiyaviy funksiyalarning zaiflashishi, birinchi navbatda, oilaning ijtimoiy mavqeining pasayishi va inqirozi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun oila qurayotganlarga avvalambor, bo'lg'usi umr yo'ldoshini hurmat qilish, ota-onalar ham bu yangi oiladan



rozi bo'lishi chora-tadbirlarini yana kuchaytirib, yoshlarga faqat moddiy ta'minot oila a'zolarini baxtli qila olmasligini hayotiy tajribalardan misollar keltirib, oddiy tarzda tushuntirish yo'llarini o'ylab topish va amaliyotga tadbir etish mexanizmlarini joriy etishimiz zarur. Baxtga qarshi, mamlakatimiz sharoitlaridagi eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri - ko'pnikohlik (poligamiya) va dunyoviy nikohsiz yashash hodisasining borgan sari chuqurlashib borilayotgani kuzatilmoqda. Ushbu hodisa esa jamiyat tayanchi hisoblangan oila instituti barqarorligi va mustahkamligiga jiddiy xavf-xatarni keltirib chiqarmoqda.

Azaldan o'zbek xalqi o'g'il-qizlarini oilalik qilayotganida islomiy nikohni o'qitishni muhim amal sifatida tushunib kelgan. Hatto, "Kurashuvchan ateizm" hukmronlik qilgan vaqtlarda ham pinxona bo'lsa-da, bunday nikohga amal qilgan. Biroq, zamonaviy O'zbekistonda islomiy nikohni o'tkazishda poligamik oilalarni bunyod bo'lishi ham sodir bo'lmoqda. Bunday holatni oldini olish uchun davlat tomonidan diniy soha mutaxassislari oldiga jiddiy talab qo'yilgan. Ammo poligamik nikohga ega bo'luvchilar bu talabni chetlab o'tishga harakat qilib, diniy sohadan yiroq bo'lgan kishilarga nikoh o'qitishga urinyaptilar.

Ta'kidlash kerakki, yoshlar va ularning ota-onalari oila masalasiga oid dunyoviy va diniy bilimlardan xabardor emasliklari, ularni asl manbalardan o'rganmaganliklari, bugungi kunda oilaviy munosabatlarga oid ko'plab diniy savollar, bahs-munozaralarga asos bo'lib qolmoqda. Shar'iy nikohni yashirincha o'tkazish, kundoshlar o'rtasidagi ziddiyatlar, ayollarda eriga bo'lgan ishonchsizlik va behurmatlilik, otalik faktini belgilanmaganligi, farzandlarning o'z otasiga nisbatan nafrat ruhida voyaga yetishi, mas'uliyatsiz erkaklar tomonidan shar'iy nikohga jiddiy



yondashmaslik, shar'iy nikohidagi ayoli va farzandlari oldidagi burch va majburiyatlarini to'liq bajarmasligi, ularni nazoratsiz, boshqaruvsiz, ta'minotsiz o'z holiga tashlab qo'yish, ma'lum muddatdan so'ng osonlikcha norasmiy shar'iy nikohdagi oilasidan voz kecha olish, ularning qonunga ko'ra huquqiy haqqi yo'qligini bilgan holda "yarim yetim" yoki "tirik yetim" bolalaridan umuman xabar olmay, moddiy ta'minlamaslik kabi holatlari statistik qayd etilmagan oilaviy munosabatlarning og'riqli nuqtalaridan biri. Buning natijasida jamiyatda "yarim yetim" bolalar va beva ayollarning soni oshishiga, ularning ruhiy, psixologik holatidagi muammolarga shariat hukmlarini aybdor qilib ko'rsatish holatlari kuzatilmoqda.

Islomiy nikoh imom-xatib yoki uning muovini tomonidan o'qilishi kerak, degan munosabatni bildirishdi. Shuning uchun yoshlar orasida professional diniy mutaxassisgina islomiy nikohni o'qishi lozimligini keng targ'ib qilish lozim. Savodsiz kishilar tomonidan chala-pulcha, xatolar asosida o'qilgan nikoh haqiqiy bo'lmasligi mumkinligini ular ongiga singdirish lozim.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi dolzarb muammolardan biri - bu ajrimlar sonining oshib borishidir. Baxtga qarshi bu holat yil sayin ko'payib bormoqda. Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida, statistika agentligiga ko'ra, O'zbekistonda qayd etilgan nikohlar soni 184461 tani tashkil etgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 foizga kam deganidir. Hisobot davridagi nikohdan ajralishlar soni esa 37654 tani tashkil etgan. Bu borada esa mazkur raqamlarning o'tgan yilga nisbatan 3,3 foizga ortgani qayd etilmoqda. Tadqiqotda ishtirok etganlar buning eng asosiy ikki sababi sifatida - yoshlarning yengil-yelpi va oson hayotga qiziqishlarida hamda ajrashsam yana oila qura olaman-ku, deb



o'zlariga ortiqcha ishonishlarida, degan javoblarini ko'rsatdilar. Haqiqatan ham, yuqoridagi ikki sabab ajrimlarga faol ta'sir ko'rsatayapti. Shuning uchun ota-onalar, yaqin qarindoshlar oila qurayotgan yoshlarga bu masalada o'z munosabatlarini bildirishni kuchaytirishlari lozim.

Jamiyatimiz hayotida poligamik nikoh bilan yonma-yon tarzda ham dunyoviy, ham islomiy nikohsiz oila qurish holatlari ham uchrab turibdi. Agar dunyoviy nikoh FXDYO tomonidan amalga oshirilmayotganini inobatga olsak, bu birinchidan, oilaning huquqiy maqomga erishishiga to'siq bo'layotgan bo'lsa, ikkinchidan oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy ko'mak ko'rsatish mexanizmining ishlashiga halaqit qilmoqda.

O'z mustaqil oilasini qurishga qadam tashlayotgan yosh avlodni FXDYO dan o'tmasdan, islomiy nikoh o'qitmasdan oila qurish holatidan yiroq bo'lishini ta'minlash omillar sifatida respondentlar azaldan bobo-buvilarimiz o'z nikohlarini jamoatchilikka ma'lum qilib kelganliklarini yoshlar ongiga singdirish joiz va dunyoviy hamda diniy nikohsiz qurilgan oilaning kelajagi yo'qligini yoshlar bilan uchrashuvlarda ular e'tiboriga yetkazish darkor, degan mulohazalarini ilgari surishdi. Buning uchun esa OAVda muftiyat tomonidan muammo yechimi uchun ishlab chiqilgan pandu nasihatlarini yoshlar ongiga yetkazish lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarni bunday illatlardan saqlashda diniy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi hadislardagi ibratli masalalarni keng targ'ib etishni lozim, deb hisoblaymiz.



TAVSIYA VA TAKLIFLAR

Imom-xatib imom noiblari, mahallalarga biriktirilgan mas'ul domlalar kelin-kuyovga nikoh o'qish jarayonida yuqorida bayon qilingani kabi tomonlarning haq-huquqlari mavjudligini ham yetkazishi lozim.

Imom-xatiblar tomonidan juma tezisida farzandlarni nikohga tayyorlash va ajrimga sabab bo'layotgan omillari borasida ma'ruzalar qilishi.

Otinoyi nikoh arafasida qaynona va kelinga yuqoridagi bayon qilingani kabi huquq va majburiyatlari hamda e'tirof etilgan urf-odatlarini yetkazishi lozim

Oilada faqat qiz farzandning tug'ilishi oila ajrimiga sabab bo'la olmasligini tushuntirish kerak.

Bo'lajak kelin va kuyovlar nikohdan o'tish haqida ariza yozganlaridan so'ng FHDY idoralari qoshida tashkil etiladigan "Oila maktabi" o'quv kurslarida psixologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik, iqtisod, axloqshunoslik kurslarini o'tashlarini tashkil etish lozim.

Oila va xotin qizlar davlat qo'mitasi ruxsati bilan xususiy tartibda "oilaga tayyorlov" o'quv kurslarini tashkil etishni yo'lga qo'yish kerak.

Hech qanday hunari, daromadi bo'lmagan, ammo sud yoki FHDY tartibida ajrim to'g'risida qo'lga guvohnoma olgan ayollar ro'yxati shakllantirilib, ularni kasbga tayyorlash va ishga joylashtirish choralari ko'rib borilishi, qonuniy nikoh bekor qilinishi natijasida umumiy mol-mulk bo'lish zarurati mavjud bo'lsa, ushbu masalalarda bepul huquqiy yordam berish ishlari mahalla fuqarolar yig'ini tavsiyasi asosida amalga oshirilib, mulkini bo'lib olishga amaliy ko'mak berilishi orqali iqtisodiy qiyin vaziyatga tushib qolgan ayollarni qo'llab-quvvatlash lozim.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Yuridik adabiyotlar, 2023. – 112 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2007. – 190 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 1996. – 556 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. – 512 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019. – 400 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2020. – 512 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 461 b.
9. Sh.M Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi: "O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi jahon ommaviy axborot vositalari nigohida" <https://uza.uz/uz/posts/>



- zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6677>
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida <https://lex.uz/docs/5841063>
 12. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2014. – 618 b.
 13. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih. – Bayrut: Dor Ibn Kasir, 2002.
 14. Ahmad ibn Hanbal. Musnad al-imom Ahmad ibn Hanbal. – Bayrut: Muassasa ar-Risola, 1998.
 15. Abu Iso Muhammad ibn Iso as-Sulamiy at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. – Bayrut: Dor At-Taasiil, 2016. – J. 2.
 16. Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid Ibn Mojah al-Qazviniy. Sunan Ibn Mojah. – Bayrut: Dor Al-Jil, 2016. – J. 3.
 17. Abu-l-Fath Muhammad ibn Mahmud al-Ustrushaniy. Jomi' ahkom as-sig'or // Muftiy Usmonxon Alimov va Muslim Rizqi Ato tahriri ostida. – T.: Toshkent islom universiteti, 2010. – 496 b.
 18. Abdug'ani Abdulla o'g'li. Musulmonlik haq-huquqlari. – T.: Adolat, 1993. – 76 b.
 19. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi. – T.: Movarounnahr, 2011. – 128 b.
 20. Burhoniddin al-Marg'inoniy. Al-Hidoya. – Madina: Dor as-siroj, 2019.



21. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Xarimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
22. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga yuz javob) / Mas'ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.
23. Islom ma'rifati: asliyat va talqin. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 160 b.
24. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami) / K.Shermuhamedov, J.Xarimov. – Toshkent, "Movarounnahr" nashriyoti, 2014. – 160 b.
25. Ijtimoiy himoyaga oid Qur'oni karim oyatlari va hadislardan namunalar / Mas'ul muharrir Z.Islomov. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2007. – B. 49.
26. Tinchlikni asrash – muqaddas burch / Mas'ul muharrir A.Ochildiyev. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.
27. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.
28. Hidoyat ortiga yashiringan zalolat / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 136 b.
29. Musurmanova A. Oila jamiyat tayanchi. Monografiya. – Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi" nashriyoti, 2019. – 251 b.



30. Musurmanova A. Farzandlarimga nasihatlar. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184 b.
31. Musurmanova A. To'ychiyeva G. "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ni shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2020-yil 17-dekabr. – 72 b.
32. Musurmanova A. Qahharova M., Yusupova N. Xotin-qizlar o'rtasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish bo'yicha Yo'riqnoma. / Metodik qo'llanma/– Toshkent: "Yoshlar nashriyoti uyi", 2020-yil 9-sentabr. "Avto-Nashr" XK bosmaxonasi. –275 b.
33. Faxruddin Abulmaxofir Hasan ibn Mansur O'zgandiy. Fatovoi Qozixon. – Bayrut: Dar al-fikr, 2010. – J. 7. – 376 b.
34. Faxruddin Abu Muhammad Ali ibn Usmon O'shiy. Al-Fatovo as-sirojiya. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiya, 2011. – 696 b.
35. Фарфиев Б.А. Влияние ценностей ислама на укрепление института семи в Узбекистане // Ж. Экономика, социология и право. – Москва, 2019. №4. – С. 21-28.
36. Farfiyev B.A. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom ratsionalizmi omili. Monografiya. – Toshkent: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2019.
37. Qaxxorova M. Mafkuraviy muhit va axloq. Monografiya. – T.: "Fan" nashriyoti, 2009.
38. Qaxxorova M. Shakarov O'. Mahalla va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish texnologiyalari. Monografiya. – T.: "Fan" nashriyoti. 2021.
39. Shimmel A. Jonon mening jonimda. – Toshkent: Sharq, 1999. – B. 173.
40. Yusupova N, Qaxxorova M, Raxmatullayeva M. Jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarning holatini aniqlash va



manzilli sog'lomlashtirish ishlarini amalga oshirishning ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy psixologik metodologiyasi bo'yicha yo'riqnoma. – T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi", 2021.

41. Yusupova N., Rashidova Sh. Oilaviy hayotning shar'iy asoslari // Uslubiy qo'llanma. – T.: Tasvir 2020. – B.8.
42. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 256.



MUNDARIJA

Kirish.....	3
Oila mustahkamligi asoslari.....	8
Nikoh tuzish shartlari	18
Nikohning axloqiy mohiyati	24
Islomda nasl-nasab muhofazasi	29
Bolalarning ismi, otasining ismi va familiya olish huquqi.....	32
Ajrim holatida farzandlarning huquqi va yetim bolalar ta'minoti.....	34
Oila va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi.....	40
Rasmiy nikoh (FHDY) – qat'iy qoida, rasmiy shar'iy nikoh – axloq qoidasi, milliy urf-odat sifatida.....	54
Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimida ehtiyojmand, yolg'iz ayollarni tadbirkorlik ko'nikmasi va malakasining o'rni va roli.....	62
Yolg'iz ayollarning etnodifferensial va etnosotsial belgilari.....	68
Ko'pxotinlikning huquqiy oqibatlar.....	82
Xulosa.....	84
Tavsiya va takliflar.....	89
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.....	90

M.Qaxxorova, F.Abduraximova, O.Musurmanova,
B.Farfiyev, F.Rashidov, O'.Palvanov

OILA VA NIKOH MUNOSABATLARI MUSTAHKAMLIGINING DUNYOVIY VA DINIY ASOSLARI

(Uslubiy qo'llanma)

“Mahalla va oila” nashriyoti
Toshkent – 2024

Nashr uchun mas'ul: **B. Mavlonov**
Muharrir: **O'. Namozova**
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 06.09.2024.
“Cambria” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84^{1/16}
Nashriyot bosma tabog'i 5,5.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
M.Ismoilıy ko'chasi 1-G uy.

«Pages Print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tuman, Chimboy ko'chasi, 8-uy.

Mazkur uslubiy qo'llanmada oila mustahkamligi, xalq farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma'rifat, tinchlik, poklik kabi tamoyillarga asoslangan islom dini manbalari, qonun hujjatlari, e'zozlangan milliy urf-odatlar va sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar asosida oila va nikohning o'rni yoritilgan. Shuningdek, ushbu uslubiy qo'llanmada jamiyatning muhim instituti hisoblangan oila va uning barqarorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan norasmiy shar'iy nikoh asosida yuzaga kelayotgan noqonuniy oilalar va ularda farzandlar ta'minoti hamda tarbiyasi bilan bog'liq muammolar, muqaddas oila instituti mustahkamligiga tahdid solayotgan hodisalarning oldini olish masalalari yoritilgan. Xususan, jamiyat muhitida qonuniy nikohsiz birgalikda yashash, poligamik nikohning axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy oqibatlarini tushunish, uning salbiy ta'sirlarining oldini olish mexanizmlari bilan bog'liq muammolar bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan mahalla fuqarolar yig'inlarining mutaxassislari, otinoyilar, oilashunos tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-9916-9-1



9 789910 991691